# “YOSH JADIDLAR” ILMIY TADQIQOT MARKAZINING “ILMIY TADQIQOTLAR VA START-UP”LAR FORUMI ISHTIROKCHILARINING TEZIS VA MAQOLALAR TO‘PLAMI

# СБОРНИК ТЕЗИСОВ И СТАТЕЙ УЧАСТНИКОВ ФОРУМА “НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ И СТАРТАПЫ”, ОРГАНИЗОВАННОГО НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИМ ЦЕНТРОМ “МОЛОДЫЕ ДЖАДИДЫ”

# COLLECTION OF ABSTRACTS AND ARTICLES BY PARTICIPANTS OF THE “SCIENTIFIC RESEARCH AND START-UPS” FORUM ORGANIZED BY THE “YOUNG JADIDS” RESEARCH CENTER

**TOSHKENT-2025**

*“Yosh jadidlar” ilmiy tadqiqot markazining “Ilmiy tadqiqotlar va start-up”lar forumi ishtirokchilarining tezis va maqolalar to‘plami // Jadidlar nashriyoti – 2025// 109 b.*

**TAHRIR HAY’ATI A’ZOLARI:**

**Bosh muharrir:**
*Qobulova Mohinur Farhod qizi*
*“Yosh jadidlar”ilmiy tadqiqot markazi asoschisi*

**Bosh muharrir o‘rinbosarlari:**
*Soberova Mohira*
*Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi*

*Fazliddinov Janobiddin Zaynobiddin o‘g‘li*
*Argentinaning fan va adabiyot yozuvchilar uyushmasi a’zosi*

**Mas’ul kotib:**
*Fazliddinov Janobiddin Zaynobiddin o‘g‘li*
*Samarqand davlat tibbiyot universiteti talabasi*

**© “YOSH JADIDLAR”ILMIY TADQIQOT MARKAZI 2025**



*Ilm-fan va innovatsiyalarga tayangan davlat hech qachon yengilmaydi. Biz yoshlarga ishonamiz, ularni qo‘llab quvvatlaymiz. Bir narsani bilishimiz kerak: ilmsiz, innovatsiyasiz oldimizga qo‘ygan maqsadlarga hech qachon erisha olmaymiz.*

***Sh.M.Mirziyoyev***
***O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti.***

## SO‘ZBOSHI

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiyalar davrida ilm-fan va innovatsiyalar har bir jamiyat taraqqiyotining asosiy mezoniga aylangan. Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilayotgan «Yangi O‘zbekiston – taraqqiyot va innovatsiyalar makoni» tamoyili asosida barcha sohalarda ilg‘or g‘oyalar, amaliy tadqiqotlar va startap tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, yosh olimlar, izlanishdagi talaba-yoshlar va iqtidorli tadqiqotchilar uchun ilmiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish, o‘z innovatsion g‘oyalari va texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini yaratish – bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biridir.

Ana shunday maqsad va vazifalarni amalga oshirishda “Yosh jadidlar” ilmiy tadqiqot markazi muhim o‘rin tutmoqda. Markaz tomonidan ilk marotaba tashkil etilgan **“ILMIY TADQIQOTLAR VA START-UP”lar forumi** nafaqat yoshlarning ilmiy-intellektual salohiyatini namoyon etishga, balki turli fan sohalarida olib borilayotgan tadqiqotlarni amaliyot bilan bog‘lash, start-up loyihalarni keng jamoatchilik e’tiboriga havola etish, innovatsion yechimlar asosida real muammolarga yechim topish imkonini berdi.

Ushbu ilmiy-amaliy forum doirasida taqdim etilgan tezis va maqolalar to‘plami esa, ayni jarayonlarning samarali natijasi sifatida qaraladi. Mazkur to‘plamga turli oliy ta’lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot markazlari va innovatsion texnoparklar vakillari tomonidan tayyorlangan dolzarb ilmiy maqolalar, eksperimental ishlanmalar, amaliy natijalar va start-up konsepsiyalari jamlangan. Maqolalarda fan, texnologiya, tibbiyot, iqtisodiyot, muhandislik, ijtimoiy-gumanitar sohalardagi dolzarb masalalar ko‘tarilib, ularga zamonaviy yondashuvlar orqali yechim taklif etilgan.

To‘plamda ishtirok etgan mualliflar – bu o‘z ilmiy izlanishiga mehr qo‘ygan, zamonaviy fikrlaydigan, ijodiy yondashuvga ega bo‘lgan yoshlar bo‘lib, ularning har bir chiqishi – kelajakdagi katta ilmiy kashfiyotlarga zamin yaratadigan bir qadamdir. Ushbu maqolalar va tezislar bugungi kunning dolzarb masalalariga yoshlar nigohi bilan qarash, yangicha fikr-mulohazalarni ilgari surish hamda ijtimoiy, texnologik va iqtisodiy muammolarga innovatsion yechimlar topishga bo‘lgan intilishlarini yaqqol aks ettiradi.

Shu bois, ushbu nashr – nafaqat yoshlar ilmiy faoliyatining ko'zgusi, balki kelajak avlod uchun motivatsion va nazariy-amaliy manba sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. To'plamning har bir sahifasi – bilimga chanqoqlik, izlanishga bo'lgan qiziqish, o'z ustida ishlash, jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shish yo'lidagi fidokorona sa'y-harakatlarning mahsulidir.

Shu munosabat bilan, "Yosh jadidlar" ilmiy tadqiqot markazi jamoasi forum ishtirokchilarini va maqola mualliflarini mazkur nashr bilan tabriklab, ularning keyingi ilmiy va innovatsion faoliyatiga yuksak muvaffaqiyatlar tilaydi. Umid qilamizki, ushbu to'plam keyingi izlanishlar, hamkorliklar va yutuqlarga yo'l ochib beradi.

**"YOSH JADIDLAR" ILMIY TADQIQOT MARKAZI**

**UO'T: 634.21-634.**

# UZUMNING SHAROBBOP NAVLARI G'UJUMINING MEXANIK XUSUSIYATLARI VA HOSILDORLIGI

*Navro'za Xamrayeva*
*Toshkent davlat agrar universiteti talabasi*
*Salomat Abduramanova*
*Toshkent davlat agrar universiteti professori, q.x.f.d.*
*abduramanova28@mail.ru Toshkent, O'zbekiston.*

**Annotatsiya:** Maqolada sharobbop uzum boshining mexanik tuzilishini, uzum navlarining hosildorligi navlarga bog'liq darajada sezilarli oshishi aniqlangan. Bunda hosildorlikning oshishi tupdagi uzum boshlar soni va uning og'irligi hisobiga to'g'ri navlarning hosildorligi bir gektarga to'g'ri keladigan hosil novdalari soniga shu novdalardagi mavjud uzum boshlar soniga va har bir uzum boshning o'rtacha og'irligiga bog'liqdir. Bu omillar bo'yicha yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan sharobbop navlar har doim hosildorligi yuqori bo'lishi keltirilgan.

**Аннотация:** В статье рассматривается механическая структура виноградных гроздей винных сортов и установлено, что урожайность винограда значительно повышается в зависимости от сорта. Повышение урожайности обусловлено количеством и массой гроздей на кусте. Урожайность правильных сортов зависит от количества плодоносящих побегов на гектар, количества гроздей на этих побегах и средней массы каждой грозди. Винные сорта, обладающие высокими показателями по этим факторам, всегда отличаются высокой урожайностью.

**Abstract:** The article examines the mechanical structure of wine grape clusters and reveals that the yield of grape varieties significantly increases depending on the variety. The increase in yield is due to the number and weight of grape clusters per vine. The productivity of the correct varieties depends on the number of fruitful shoots per hectare, the number of grape clusters on those shoots, and the average weight of each cluster. Wine grape varieties that show high indicators in these factors always have higher yields.

**Kalit soʻzlar:** Uzum, nav, koʻchat, novda, sharbat, gʻujum, urugʻ, hosildorlik.

**Ключевые слова:** Виноград, сорт, саженец, побег, сок, гроздь, семя, урожайность

**Key words:** Grape, variety, seedling, shoot, juice, cluster, seed, yield

**Kirish.** Uzumchilik qishloq hoʻjaligining asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda dunyo boʻyicha tokzorlarning umumiy maydoni 7 mln. 546 ming gektarni, yalpi uzum hosili 62 mln. tonnani tashkil etmoqda. Yetishtiriladigan uzum hosilining asosiy qismi – 83% vino tayyorlash, 12% yangiligicha isteʼmol qilish va 5% quritish (mayiz) uchun ishlatiladi. Dunyo boʻyicha yetishtirilgan uzumning 31 mln. tonnasi Yevropa, 12,5 mln. tonnasi AQSH, 13,5 mln. tonnasi Osiyo, 3,1 mln. tonnasi Afrika va 3,1 mln. tonnasi Avstraliya va Yangi Zelandiya mamlakatlari ulushiga toʻgʻri kelib, uzum hosildorligi oʻrtacha 82,2 s/ga ni tashkil etmoqda.

Oʻzbekistonda 20 ta rayonlashtirilgan sharobbop navlar boʻlib, har xil viloyatlarda rayonlashtirilgan. Bular Алеатика, Баян ширей, Олтиндай, Магарач, Майский чёрный, Марастел, Пушти мускат, Рислинг, Ркатсители Саперавий, Сояки, Тарнау, Тошкент, Хиндогни, Венгрия muskatlaridir [3].

Uzumning sharobbop navlaridan Italiya 59276 ming gl, Fransiya 54640 ming gl, Ispaniya 18945 ming gl sharob tayyorlab yetakchi oʻrinlarni egallaydi [4].

Tadqiqotlar 2024 yil Toshkent davlat agrar universitetining oʻquv-ilmiy tajriba xoʻjaligining uzum bogʻida oʻtkazildi. Uzum boshi tarkibining mexanik tahlili A.H. Простосердов [1] tavsiya etgan usul hamda uzumchilikda umumqabul qilingan uslublar asosida olib borildi.

Hosildorlik koʻrsatkichlarini aniqlash yaʼni rivojlanmagan kurtaklar, hosilsiz va hosilli (1 va 2 uzum boshli) novdalarni hisoblash В.Ф. Моисейченко [2] uslubi boʻyicha bajarildi.

**Tadqiqot natijalari.** Muskat desertniy va Muskat VIR navlari tok tupining hosildorligi boshqa navlarga nisbatan eng yuqori 14,5-20,6 kg boʻlishi kuzatildi. Pushti muskat, Oq muskat va Muskat Vengiskiy navlarida hosildorlikning eng kam 10,2-12 kg ni boʻlishi aniqlandi. Shunday qilib oʻrganilgan uzum navlarining hosildorligi

navlarga bog‘liq darajada sezilarli oshishi aniqlandi. Bunda hosildorlikning oshishi tupdagi uzum boshlar soni va uning og‘irligi hisobiga to‘g‘ri keldi.

**1- jadval**

**Uzumning sharobbop navlarini hosil navdalari ko‘rsatkichlari, 2024 yil**

| Navlar | Balandlik dengiz satxidan, m | Tupdagi kurtak yuklamasi, dona | Hosilli novdalar, % | Bitta hosillik novdalar uzum boshlari soni | Barcha navdadagi uzum boshlari soni |
|---|---|---|---|---|---|
| Oq muskat | 667<br>984 | 130<br>120 | 45<br>32 | 1,0<br>1,0 | 0,4<br>0,4 |
| Muskat Vengerskiy | 667<br>984 | 125<br>120 | 32,5<br>27 | 1,4<br>1,2 | 0,6<br>0,5 |
| Muskat VIR | 667<br>984 | 130<br>122 | 59<br>44 | 1,39<br>1,1 | 0,81<br>0,7 |
| Muskat desertniy | 667<br>984 | 120<br>115 | 61,6<br>52 | 1,5<br>1,3 | 0,88<br>0,7 |
| Pushti muskat | 667<br>984 | 125<br>120 | 70,7<br>62 | 1,4<br>1,2 | 0,92<br>0,8 |
| Qora pino | 667<br>984 | 130<br>118 | 42,4<br>38 | 1,5<br>1,3 | 0,88<br>0,7 |

Tajribada o‘rganilgan sharobbop uzum navlari hosilidan sharbat olishda laboratoriya va ishlab chiqarishda qo‘llanadigan presslardan foydalandi va sharbat chiqishi aniqlandi (1-jadval).

Bir tonna uzumdan sharbat chiqishi 625-800 l ni tashkil etadi. Oq muskat navining bir tonna hosilida olinadigan sharbat eng yuqori 800 l ni tashkil qildi. Qora pino va navilarida 750-765 l ni bo‘lishi kuzatildi. Eng kam sharbat chiqishi Muskat VIR navida 625 l ni tashkil qildi.

Uzum boshining mexanik tuzilishini tahlil qilish uchun navga xos 5 ta uzum boshi olindi, har bir uzum boshi og‘irligi torozida tortiladi (g), har bir uzum boshidagi g‘ujumlar soni sanaladi (dona),

uzum boshidagi jami g‘ujumlar og‘irligi tortiladi (g), shingilining og‘irligi aniqlanadi (g), uzum boshiga nisbatan g‘ujumlar va shingilining nisbati topiladi (uzum boshining umumiy og‘irligiga nisbatan %).

G‘ujum po‘sti, urug‘i va sharbatining og‘irligini aniqlash uchun olingan g‘ujumlar mato qopchaga solinadi (eng yaxshisi bo‘z mato) va undan sharbat siqib olinadi. Qopchada qolgan qoldiq filtr qog‘oziga to‘kiladi, undan urug‘ ajratib olinadi va og‘irligi torozida tortiladi. So‘ngra po‘st va et qismi qoldig‘ining og‘irligi tortiladi. Sharbat og‘irligini topish uchun g‘ujum og‘irligidan rudiment urug‘ va po‘st og‘irligi chiqarib tashlanadi.

Uzum boshining transportabellik xususiyatlariga g‘ujumning bandidan uzishga, g‘ujumining ezilishga qarshiligi kiradi. Ushbu mexanik xususiyatlar P.T. Bolgarev asbobida aniqlanadi. Bunda g‘ujumlarning bandidan uzilish yuklamasi kg yoki grammlarda belgilanadi. G‘ujumning ezilishini aniqlash uchun har bir navdan 30 donadan sog‘lom, shikastlanmagan g‘ujum olinadi.

G‘ujum sharbatining qanddorligi sharbatning solishtirma og‘irligini ko‘rsatuvchi areometr bilan aniqlandi Kislotalilikni aniqlashda uzum sharbatiga indikator sifatida fenolftalein qo‘shilgan holda 0,1 N ishqor eritmasida (NaON) titrlash usuli yordamida aniqlangan.

Tok navlarining asosiy belgilaridan biri bu uning hosildorlikni embrional, potensial, haqiqiy hosildorlik kabi xillari bor. Tok tupining hosildorlik ko‘rsatkichlari shu yilgi pishib yetilgan navlaridagi qishlovchi kutraklarda shakllangan to‘p gul murtagini miqdori va ularni davridagi holatni aniqlash yo‘li bilann belgilanuvchi (biologik hosildorlik), O‘simlik organik mahsulotlari massasini ko‘rsatuvchi (biologik hosildorlik), har bir tok tupi yoki bir gektar maydondagi yetishtirilgan hosilni umumiy miqdori bilan belgilanuvchi (xo‘jalik hosidorligi), shuningdek eng oliy sharoitda qishgi kurtaklarning 100% hosil berish qobiliyatiga ega bo‘lgandagina olish mumkin bo‘lgan (haqiqiy) hosildorlik ko‘rsatkichi ya’ni haqiqiy hosildorlik muhim ahamiyat kasb etadi.

Uzumning sharobbop navlarini hosildorlik koeffitsentini ya’ni bitta hosilli novdadagi uzumboshlar soni va hosil berish koeffitsentini yoki tok tupidagi uzum boshlarning barcha rivojlangan novdalarga

nisbati aniqlandi. Navlarning hosildorligi bir gektarga to‘g‘ri keladigan hosil novdalari soniga shu novdalardagi mavjud uzum boshlar soniga va har bir uzum boshning o‘rtacha og‘irligiga bog‘liqdir. Bu omillar bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan sharobbop navlar har doim hosildorligi yuqori bo‘ladi.

Kurtaklarning o‘sib chiqishini aniqlash. Bir novdada qoldirilgan umumiy miqdori, bir novdada o‘sib chiqqan soni va ularning navdalarda joylashishi, o‘sib chiqmagan va o‘sib chiqib novda otmaganlarining soni, o‘sib chiqqanlarining novdada qodirilgan umumiy soniga nisbati foizda aniqlandi. Mazkur hisoblar 8-15 aprel kunlarida yangi novdalar uzunligi 7-10 sm bo‘lganda olib borilgan. Bir yillik novdalar aniqlash. Hisobga kiritilgan novdalardagi hosildor yangi novdalarning soni hosilsiz novdalardan ajratilib aniqlagan. Novdalarning hosildorligi va novda hosildorlik koeffitsenti umumiy qabul qilingan usul bilan aniqlandi.

Hisoblashlar hosilsiz navdalarni kesib tashlashdan oldin 20-30 aprel kunlari va uzum gullab bo‘lgandan keyin 10-15 iyun kunlari olib borildi. Novdalarning o‘sishi va pishish darajasini hisobga olish oktabrda novdaning pishgan va pishmagan qismidagi bo‘g‘imlar sonini hisoblagan holda, novdalarning umumiy uzunligi va pishgan qismi uzunligi o‘lchash bilan o‘tkazildi.

Hosil miqdori har bir tupdagi uzum boshi soni va ularning uzum boshlari og‘irligini hisoblagan holda, har bir variantdagi hisobli tuplarda aniqlandi. Uzum boshining o‘rtacha og‘irligi tupning hosilini undagi uzum boshlar soniga bo‘lish bilan, g‘ujumining o‘rtacha og‘irligi – 100 dona g‘ujumni tortish bilan aniqlandi.

**2- jadval**

**Uzumning muskat navlari uzum boshi og‘irligi va hosildorligi**

| **Navlar** | **Balandlik dengiz sathidan, m** | **Tupdagi uzum boshlar, dona** | **Uzum boshi og‘irligi, g** | **Tupdagi hosil, kg** | **Hosildorlik, t/ga** |
|---|---|---|---|---|---|
| Oq muskat | 667<br>984 | 45<br>32 | 410<br>390 | 10,5<br>8,5 | 14<br>12 |
| Muskat Vengerskiy | 667<br>984 | 32,5<br>27 | 165<br>140 | 12<br>10 | 16,2<br>14,2 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Muskat VIR | 667<br>984 | 59<br>44 | 300<br>280 | 20,6<br>18,6 | 27,5<br>25,7 |
| Muskat desertniy | 667<br>984 | 61,6<br>52 | 218<br>200 | 14,5<br>12,3 | 19,3<br>17,3 |
| Pushti muskat | 667<br>984 | 70,7<br>62 | 280<br>261 | 10,2<br>8,5 | 13,6<br>11,3 |
| Qora muskat | 667<br>984 | 42,4<br>38 | 259<br>230 | 13<br>11 | 17,3<br>15,3 |

Muskat desertniy va Muskat VIR navlari tok tupining hosildorligi boshqa navlarga nisbatan eng yuqori 14,5-20,6 kg bo‘lishi kuzatildi. Pushti muskat, Oq muskat va Muskat Vengiskiy navlarida hosildorlikning eng kam 10,2-12 kg ni bo‘lishi aniqlandi. Shunday qilib o‘rganilgan uzum navlarining hosildorligi navlarga bog‘liq darajada sezilarli oshishi aniqlandi. Bunda hosildorlikning oshishi tupdagi uzum boshlar soni va uning og‘irligi hisobiga to‘g‘ri keldi.

Tajribada o‘rganilgan sharobbop uzum navlari hosilidan sharbat olishda laboratoriya va ishlab chiqarishda qo‘llanadigan presslardan foydalandi va sharbat chiqishi aniqlandi (2-jadval).

2-jadval ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, bir tonna uzumdan sharbat chiqishi 625-800 l ni tashkil etadi. Oq muskat navining bir tonna hosilida olinadigan sharbat eng yuqori 800 l ni tashkil qildi. Qora pino va navilarida 750-765 l ni bo‘lishi kuzatildi. Eng kam sharbat chiqishi Muskat VIR navida 625 l ni tashkil qildi.

Uzum boshining mexanik tuzilishini tahlil qilish uchun navga xos 5 ta uzum boshi olindi, har bir uzum boshi og‘irligi torozida tortiladi (g), har bir uzum boshidagi g‘ujumlar soni sanaladi (dona), uzum boshidagi jami g‘ujumlar og‘irligi tortiladi (g), shingilining og‘irligi aniqlanadi (g), uzum boshiga nisbatan g‘ujumlar va shingilining nisbati topiladi (uzum boshining umumiy og‘irligiga nisbatan %).

G‘ujum po‘sti, urug‘i va sharbatining og‘irligini aniqlash uchun olingan g‘ujumlar mato qopchaga solinadi (eng yaxshisi bo‘z mato) va undan sharbat siqib olinadi. Qopchada qolgan qoldiq filtr qog‘oziga to‘kiladi, undan urug‘ ajratib olinadi va og‘irligi torozida tortiladi. So‘ngra po‘st va et qismi qoldig‘ining og‘irligi tortiladi. Sharbat og‘irligini topish uchun g‘ujum og‘irligidan rudiment urug‘ va po‘st og‘irligi chiqarib tashlanadi.

Uzum boshining transportabellik xususiyatlariga g‘ujumning bandidan uzishga, g‘ujumining ezilishga qarshiligi kiradi. Ushbu mexanik xususiyatlar P.T. Bolgarev asbobida aniqlanadi. Bunda g‘ujumlarning bandidan uzilish yuklamasi kg yoki grammlarda belgilanadi. G‘ujumning ezilishini aniqlash uchun har bir navdan 30 donadan sog‘lom, shikastlanmagan g‘ujum olinadi.

G‘ujum sharbatining qanddorligi sharbatning solishtirma og‘irligini ko‘rsatuvchi areometr bilan aniqlandi Kislotalilikni aniqlashda uzum sharbatiga indikator sifatida fenolftalein qo‘shilgan holda 0,1 Na ishqor eritmasida (NaOH) titrlash usuli yordamida aniqlangan.

Tok navlarining asosiy belgilaridan biri bu uning hosildorligidir. Tok tupining hosildorlik ko‘rsatkichlari shu yilgi pishib yetilgan novdalaridagi qishlovchi kurtaklarda shakllangan to‘p gul murtagini miqdori va ularni davridagi holatni aniqlash yo‘li bilan belgilanuvchi (biologik hosildorlik), o‘simlik organik mahsulotlari massasini ko‘rsatuvchi (biologik hosildorlik), har bir tok tupi yoki bir gektar maydondagi yetishtirilgan hosilni umumiy miqdori bilan belgilanuvchi (xo‘jalik hosidorligi), shuningdek eng oliy sharoitda qishgi kurtaklarning 100% hosil berish qobiliyatiga ega bo‘lgandagina olish mumkin bo‘lgan (haqiqiy) hosildorlik ko‘rsatkichi ya’ni haqiqiy hosildorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Bulardan tashqari tok tupi mahsuldorligini aniqlashda uning hosildorlik koeffitsenti va novdalar hosildorligi eng muhim nav belgilaridan hisoblanadi. Shuning uchun tajribada o‘rganilayotgan uzumning sharobbop navlarini hosildorlik koeffitsentini ya’ni bitta hosilli novdadagi uzumboshlar sonini va hosil berish koeffitsentini yoki tok tupidagi uzum boshlarning barcha rivojlangan novdalarga nisbatan aniqladi. Navlarning hosildorligi yer birligiga yoki bir gektarga to‘g‘ri keladigan hosil novdalari soniga shu novdalardagi mavjud uzum boshlar soniga va har bir uzum boshning o‘rtacha og‘irligiga bog‘liqdir. Bu omillar bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan uzumning sharobbop navlari har doim yer birligidan yuqori hosil beradi.

Hosildorlik koeffitsiyenti bitta hosilli novdadagi uzum boshlarining soniga aytiladi. Navning asosiy belgilaridan hisoblanib, sharobbop navlarda odatda 1-2 ta, ba’zan esa 2-3 ta bo‘lishi mumkin. Bu ko‘rsatkichni tok kesish vaqtida novdalarni kerakli miqdorda va

uzunlikda qoldirish, tokning oziqa va suv rejimini yaxshilash, novdalar uchini chilpish, chekanka qilish, tok novdalarini simbag‘azlarga egibroq bog‘lash kabi tadbirlar yordamida oshirish mumkin.

**Xulosa.** Muskat desertniy va Muskat VIR navlari tok tupining hosildorligi boshqa navlarga nisbatan eng yuqori 14,5-20,6 kg bo‘lishi kuzatildi. Pushti muskat, Oq muskat va Muskat Vengiskiy navlarida hosildorlikning eng kam 10,2-12 kg ni bo‘lishi aniqlandi.

Hosil berish tok tupidagi uzum boshlarining barcha rivojlangan novdalarga bo‘lgan nisbati. Uzum naviga qarab 0,2 dan 2 va undan ortiq bo‘lishi mumkin. Hosil berish koeffitsiyenti tuproq-iqlim sharoitlari, suv va boshqa agrotexnika tadbirlariga bog‘liq bo‘ldi.

Uzumning sharobbop navlarini hosil novdalari ko‘rsatkichlari har xil bo‘lishi aniqlandi. Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, uzumning sharobbop navlari hosil novdalari ko‘rsatkichlari 53,2-70 % ga to‘g‘ri keldi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Простосердов Н.Н. Изучение винограда для определения его исползования. М: Пищепромиздат, 1963. С. 63.
2. Моисейченко В. Ф, Заверюха А. Х., Трифонова М. Ф. Основы научных исследований в плодоводстве, овощеводстве и виноградарстве. — М.: Колос, 1994. — 384 с.
3. Лазаревский М.А. Методы ботанического описания и агробиологического изучения сортов винограда // Ампелография СССР. – М.: Пищепромиздат, 1946. – Т.И. – С. 347-400.
4. Темуров Ш.С. Узумчилик. Т. 2002. Б. 218.

# OITS:GLOBAL MUAMMO, MAHALLIY TA`SIR – KASALLIKNING KECHAGI , BUGUNGI VA ERTANGI KO`RINISHI

*Qo`qon Universiteti*

*Andijon Filiali Tibbiyot fakulteti*

*davolash ishi 24_01-guruh talabasi*

*Mansurjonova Pokiza Solijon qizi*

**Annotatsiya**:

Mazkur maqolada OITS(Odam immunitet tanqisligi sindromi) kasalligining global darajadagi tarqalishi, uning ijtimoiy, iqtisodiy va sog`liqni saqlash tizimiga ko`rsatgan ta`siri, shuningdek, mahalliy miqyosidagi oqibatlari tahlil qilinadi. Unda OITSning tarixiy kelib chiqishi, dastlabki yillarda jamiyatdagi qabul qilinishi, bugungi kundagi profilaktika va davolash usullari, shuningdek, kelajakda kasallik bilan kurashishda strategiyalari yoritiladi. Tadqiqot davomida OITSga qarshi kurashda xalqaro hamkorlik, mahalliy sog`liqni saqlash siyosati, axborot tarqatish va aholi ongliligini oshirish muhim omillar sifatida ko`rib chiqilgan. Maqola OITSga qarshi kurashda har bir insonning ma`suliyatini anglashga chaqiradi

**Kalit so`zlar:**

OITS, OIV, profilaktika, epidemiologiya, sog`liqni saqlash, ijtimoiy ong,xalqaro hamkorlik, mahalliy ta`sir,gender tenglik, global muammo.

## Kirish

Odam immunitet tanqisligi sindiromi (OITS) va uni keltirib chiqaruvchi OIV (odam immunitet tanqisligi virusi ) insoniyatning eng jiddiy sog`liq muammolaridan biri bo`lib qolmoqda. Dastlab 1980-yillarda aniqlangan bu virus , qisqa vaqt ichida global miqyosda tarqaldi va minglab insonlar hayotiga zomin bo`ldi. Bugungi kunda ham OITS nafaqat sog`liqni saqlash tizimi, balki iqtisod, ijtimoiy hayot, ma`naviyat va madaniyatga ham bevosita ta`sir ko`rsatmoqda .

**Kechagi kun: OITSning ilk yillari**

Bu kasallik 1981-yilda AQSHda ilk bor qayd etilgan. OITS holatlari tibbiy hamjamiyatda keng shov- shuvga sabab bo`ldi. Boshida bu kasallik haqida tibbiyot sohasidagilarda yetarlicha bilim yo`q edi va shu sababli bu kasallik bilan kasallanganlar stigmatizatsiyaga uchrar edi. 1980-1990-yillarda bu virus tezlik bilan keng tarqaldi, ayniqsa Afrika va Osiyoning ayrim hududlarida bu holat inqiroz darajasiga yetdi.

O`sha davrlarda OITS uchun samarali davo ham mavjud emas edi. Diagnostika vositalari cheklangan , profilaktika va axborot tarqatish ishlari yetarli darajada olib borilmagan edi. Natijada, millionlab insonlar virus yuqtirganidan bexabar bo`lgan va uni boshqa odamlarga ham yuqtirgan.Dastlab, kasallik asosan erkaklar orasida, ayniqsa, giyohvand moddalarni in`ektsiya qilish orqali tarqalgan.Keyinchalik, OIV infeksiyasi dunyo bo`ylab keng tarqaldi va 2018- yil oxiriga kelib, taxminan O`zbekistonda 37ming 872 nafar odam ushbu virus bilan yashayotganligi aytilgan. Bu har 100ming kishiga nisbatan 115,8 nafarni tashkil etadi.

**Bugungi kun: Ilm- fan yutuqlari va real holat**

Bugungi kunda OITSga qarshi kurashda sezilarli yutuqlarga erishildi. Antiretrovirus (ARV) terapiyasi yordamida visusni nazorat ostida ushlab turish mumkin. OIV bilan yashayotgan insonlar to`g`ri davolanish orqali uzoq va sog`lom umr kechirish imkoniga ega bo`lishmoqda.

Shunga qaramay, muammo to`liq hal bo`lgani yo`q. Jahon Sog`liqni Saqlash Tashkilotining ma`lumotlariga ko`ra, 2023-yilga kelib dunyo bo`yicha 39millionga yaqin insonlar OIV bilan yashagan.Ko`plab rivojlanayotgan mamlakatlarda, xususan, Afrika, Janubi-Sharqiy Osiyo va Markaziy Osiyoda OITSga chalinganlar soni yuqoriligi saqlanib qolinmoqda.

O`zbekistonda ham OITSga qarshi kurashda davlat tomonidan qator chora-tadbirlar ko`rilmoqda. Virusni aniqlash, oldini olish, ijtimoiy yordam va profilaktika borasida ijobiy siljishlar mavjud. Shunga qaramay, aholining ayrim qatlamlari orasida virus haqida

noto`g`ri tasavvurlar, stigma va ijtimoiy bosim holatlari saqlanib qolinmoqda,

OIVning O`zbekistoda 2023-yildagi hisobiga ko`ra uning jinsiy yo`li bilan yuqishi holatlari 81%ni tashkil etgan, bu esa 2012-yildagi 53,9%ga nisbatan sezilarli o`sishdir. Pareteral (qon orqali) yuqish holatlari 31,7%dan 14%ga, vertical(onadan bolaga) yuqish esa 3,5%dan0,4%gacha kamaygan. Bu natijalar OIVning jinsiy yo`l bilan yuqishi asosiy yo`lga aylanganini ko`rsatadi.

2023-2024 o`quv yillarida o`zbekistonlik o`quvchilar OITS bo`yicha xalqaro olimpiadada 122 medalni qo`lga kiritdi, bu esa mamlakat tarixidagi eng yuqori natijadir. Bu yutuq ilm-fan sohasida yoshlarning faolligini va salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

2025-yilning yanvarida Ummonning Maskat shahrida o`tkazilgan Xalqaro ilmiy Kengashning uchinchi Bosh Assambleyasida O`zbekiston Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti S.Mirzayev va bir qator olimlar bilan uchrashuvlar o`tkazdi. Uchrashuvlarda ilm-fanning erkinligi, ma,suliyati va inklyuzivligi, ilmiy diplomatiya kabi masalalar muhokama qilindi. Fanlar akademiyasi tomonida o`tkazilgan ilmiy muloqotda ilm-fanda ayollarning rolini oshirish, ularni qo`llab-quvvatlash va yosh qizlarni ilmga jalb etish masalalari muhokama qilindi. Bu tadbirlar ilm-fanda gender tengligini ta`minlashga qaratilgan.

**Ertangi kun: istiqbollar va kurashish yo`llari**

Kelajakda OITSni to`liq yo`q qilish yoki uni global miqyosda nazorat ostiga olish mumkinmi? Ilm-fanning rivojlanishi bu savolga ijobiy javob berish imkonini bermoqda. Genetik muhandislik, vaksina ishlab chiqishdagi ilg`or izlanishlar, yangi ARV dori vositalari va sun`iy intellect asosidagi monitoring tizimlari bu borada katta umid uyg`otmoqda.

Bundan tashqari ta`lim-tarbiyani kuchaytirish, ijtimoiy xabardorlikni oshirish, stigma va diskriminatsiyaga qarshi kurashish ham dolzarb mavzulardan biridir. OITSga qarshi kurash faqatgina tibbiyot sohasi emas, balki keng jamoatchilik, diniy tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari va davlat organlarining birgalikdagi sa`y harakatini talab qiladi.

**OIV va OITSning oldini olishva davolashda yangi yutuqlar**

PrEP (pre-ekspozitsiya profilaktikasi) metodlari kengayib bormoqda. Bu maetodni muntazam ravishda qabul qilish orqali yuqish xavfini sezilarli darajada kamaytirishi mumkin. PrEP OIV bilan kasallangan shaxslar bilan muloqot qiladigan, yuqish xavfi katta bo`lgan shaxslar uchun tavsiya etiladi. Yangi preparatlar va vositalar bo`yicha ilmiy izlanishlar davom etmoqda.

OIV uchun vaksinalar: Vaksina yaratish – OIVning oldini olishdagi eng katta istiqbollaridan biridir. Bugungi kunda dunyo bo`ylab OIV vaksinasini ishlab chiqish ustidan ko`plab ilmiy jamoalar faol ishlamoqda. Bu borada yirik klinik sinovlar o`tkazilmoqda. Vaksina yaratishning muvaffaqiyati OIVning evolyutsiyasi, immune tiziming javoblari va virusning turli shtamlariga qarshi ishlashdagi samaradorlikni hisobga olgan holda amalga oshirmoqda.

**Maqsadli profilaktika va ijtimoiy yondashuvlar**

Ijyimoiy va ma`rifat kampaniyalari: OIVning oldini olishda ijtimoiy yondashuvlar, jamoalar bilan ishlash va profilaktik kampaniyalar orqali odamlar o`zlarini himoya qilishni o`rganishlari kerak. Ertangi kun istqibollari shundan iboratki, jamiyatda OIVga nisbatan to`liq ogohlik va tushunvha rivojlanadi. Bu, ayniqsa, jinsiy ta`lim va xavf odatlarini kamaytirishga qaratilgan ishlarda muhim.

Xalqaro hamkorlik: OIV/OITS bilan kurashishda hamkorlikni kuchaytirish juda muhim. Jahon Sog`liqni Saqlash Tahskiloti(JSST) va boshqa xalqaro tashkilotlar doirasida bu borada global yondashuvni amalga oshirish, OIV bilan kasallanganlarga yordam berish va ularni davolashda qo`llaniladigan metodlarni takomillashtirish zarur.

Sog`liqni saqlash infratuzilmasini rivojlantirish: OIV bilan kasallanganlarning davolanishi uchun eng yaxshi infratuzulma yaratish, kasallanganlarni kasallikning ilk kunlarida aniqlash va davolashga imkon beradigan tizimlarni ishlab chiqish zarur.

**OIV bilan kurashishda ijtimoiy yondashuv va inson huquqlari**

Stigmatizatsiya va diskriminatsiyani kamaytirish: OIVning ijtimoiy oqibatlarini bartaraf etish uchun odamlar o`rtasida salbiy

stereotiplarni kamaytirish va diskriminatsiyani yo`qotish bo`yicha global ishlar davom etmoqda. Ertangi kun istqibollari, ayniqsa, OIV bilan kasallanganlarning inson huquqlarini hurmat qilishga yo`naltirilgan harakatlar bo`lishi kerak.

**XULOSA**

OITS- bu faqat tibbiy emas, balki ijtimoiy va ma`naviy muammo.Jamiyatda bu kasallikka nisbatan to`g`ri tushuncha va bilimga ega bo`lish, profilaktik tadbirlarni kuchaytirish, shuningdek, bemorlarga nisbatan mehr-shafqatli bo`lish uhim va zarur. Kechagi kunning xatolaridan saboq olib, bugun harakat qilish orqaligina biz ertangi kunga umid bilan qarashimiz mumkin. Har bir insonnig bu boradagi hushyorligi va ma`suliyati kasallik ustidan qozoniladigan g`alaba uchun yo`l ochadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:**


1. Jahon sog`liqni saqlash tashkiloti (World Health Organization-WHO). (2023)Global HIV & AIDS Statistics- Fact sheet. https://www.who.int
2. UNAIDAS.(2023). Global HIV & AIDS epidemic overview. https://www.unaids.org
3. O`zbekiston Respublikasi Sog`liqni Saqlash Vazirligi. (2023). OITSga qarshi kurashish bo`yicha milliy strategiya 2021-2025
4. Centers for Disease Control and Prevention (CDC). (2022).HIV Basics: Overview. https:www.cdc.gov/hiv
5. Karimov.I. A. (2020). OITS va yoshlar salomatligi: dolzarb muammolar va yechimlar. Toshkent Tibbiyot nashriyoti


## QUVADAN BUXOROGA- YURAKDAN KELGAN MEHNAT VA QANDOLATCHILIKDAGI SARI YO`L.

Men Zuhra Qurbonova Farg`ona viloyati Quva tumanida tug`ilganman. Bolaligimdan san`at go`zallik va mehnatga bo`lgan qiziqishim meni turli sohalarga yetakladi. Ammo qandolatchilik qalbimga eng yaqin bo`lgan kasbga aylandi. Bu sohadagi ilk qadamlarimdan boshlab izlanish va mehnat orqali o`z ustimda ishlab

kelmoqdaman. Ana shunday say harakatlarim natijasida Buxoroda o`tkazilgan qandolatchilik bo`yicha master-klass musobaqasida ishtirok etib yuksak etirofga sazovor bo`ldim. Buxoroda o`tkazilgan 12ta viloyat ishtirok etgan qandolatchilik tanlovi men uchun hayotimdagi eng muhim bosqichlardan biri bo`ldi . Ushbu musobaqada jahon andozalariga mos ish uslubim yangicha yondashuvim va mehnatim yuksak baholanib 1-o`rinni qo`lga kirittim. Bu musobaqa alohida ahamiyatga ega bo`ldi. Chunki unda nafaqat mahalliy ishtirokchilar balki Koreyalik mutaxassislar va mehmonlar ham ishtirok etib o`z xulosalari bilan baholadilar.Ularning etirofi menga xalqaro darajada o`z ustimda ishlashga yanada yuqori marralarga intilishga kata rag`bat berdi. Men faqat o`zim uchun emas, balki jamiyatimizdagi xotin-qizlarimiz uchun ham xizmat qilib kelyapman. So`nggi 5 yil mobaynida 1-2- guruh nogironligi bo`lgan ayol qizlarimizni qandolatchilik sohasiga yo`naltirib ta`lim berib kelyapman. Bu ishga butun qalbim bilan berilib mehr bilan yondashaman. Bu yillar mobaynida 2021-yildan boshlab 200-nafardan ortiq ayol va qizlarni kasbga o`rgati ularning bandligini ta`minlashda, hayotta o`z o`rnini topishga ko`maklashish men uchun iftixorli burchga aylandi.Har bir shirinlik- bu qalb mehri bilan tayyorlangan ijod namunasi bo`lib Men esa har bir ishimda ana shu mehrni joylashga harakat qildim. Shuni faxr b ilan ayta olamanki mening mehnatim nafaqat Buxoroda balki butun viloyatlar miqyosida hatto xalqaro mehmonlar oldida ham etirof etildi. Mening orzuyim-qandolatchilikni mahalliy darajada emas balki xalqaro miqyosda ham rivojlantirish, o`zimning o`ziga xos uslubimni shaklllantirish va kelajakda ko`proq shogirtlar tayyorlash. Men ishonaman tinimsiz mehnat, sidqi dildan bilim olish va sadoqat bilan ishga yondashish o`z ustimda ishlash samarasini beradi.

Bugungi kunda ta`limni yanada chuqurlashtirish maqsadida Qo`qon Universitetida psixologiya turlari bo`yicha tahsil olib kelyapman . Chunki inson qalbi va ruhiyatini anglash har qanday kasb egasi uchun zarur. Ayniqsa, ijodkar inson uchun bu tushunish, his qilish to`g`ri yo`lni tanlashda muhim qadam hisoblanadi. Psixologiya bilimlari menga nafaqat shahsiy o`sishim, balki boshqalarga ham tasir ko`rsatish insonlarni o`rganish ularni ilhomlantirishga yordam berib kelmoqda.

Har bir yutuq- bu izlanish, kuch, vaqt va ishonchning go`zal natijasidir. Va men bu natijalarni ortga qarab emas balki oldinga qarab yanada ilgarilab yanada intilishim orqali boyitib boraman.

## O'ZBEKISTONDA INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISH: MILLIY QONUNCHILIK VA UNING AMALIYOTDAGI SAMARADORLIGI

*Raximova Muhayyo*

*rahimovamuhay.yo@icloud.com*

*Toshkent davlat yuridik universiteti*
*Ommaviy huquq fakulteti*

*1-kurs A-potok 3-guruh talabasi*

**Annotatsiya.** Maqolada O‘zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish sohasida shakllangan milliy qonunchilik va uning amaliyotdagi samaradorligi tahlil qilinadi. Konstitutsiya va xalqaro huquqiy normalarga asoslangan islohotlar, milliy institutlar faoliyati hamda inson huquqlari sohasida erishilgan yutuqlar va mavjud muammolar yoritilgan..

**Kalit so’zlar:** inson huquqlari, milliy qonunchilik, sud tizimi, Ombudsman, xalqaro huquq, huquqiy islohotlar.

## PROTECTION OF HUMAN RIGHTS IN UZBEKISTAN: NATIONAL LEGISLATION AND ITS EFFECTIVENESS IN PRACTICE

*Rakhimova Muhayyo*

*rahimovamuhay.yo@icloud.com*

*Tashkent State University*

*of Law Public Law, Stream A, Group 3*

**Abstract**: The article analyzes the national legislation developed in Uzbekistan for the protection of human rights and its effectiveness in practice. It highlights reforms based on the Constitution and international legal standards, the activities of national institutions, achievements in the field of human rights, and existing challenges.

**Keywords:** *human rights, national legislation, judicial system, Ombudsman, international law, legal reforms.*

## ЗАЩИТА ПРАВ ЧЕЛОВЕКА В УЗБЕКИСТАНЕ: НАЦИОНАЛЬНОЕ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО И ЕГО ЭФФЕКТИВНОСТЬ НА ПРАКТИКЕ

*Рахимова Мухайё*
*rahimovamuhay.yo@icloud.com*
*Ташкентский государственный юридический университет*
*Факультет публичного права,*

*1 курс, поток А, группа 3, студентка*

**Аннотация.** В статье анализируется национальное законодательство, разработанное в Узбекистане для защиты прав человека, и его эффективность на практике. Освещаются реформы, основанные на Конституции и международных правовых нормах, деятельность национальных институтов, достижения в области прав человека и существующие проблемы.

**Ключевые слова:** Узбекистан, права человека, национальное законодательство, судебная система, Омбудсман, международное право, правовые реформы.

### KIRISH

Inson huquqlari zamonaviy huquqiy tizimlarning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib, insonning sha’ni, erkinligi va qadr-qimmati himoya qilinishini ta’minlaydi. Inson huquqlari har bir inson tug‘ilishidan oldin berilgan ajralmas huquqlar sifatida e’tirof etiladi. Ushbu huquqlar barcha davlatlar va jamiyatlar tomonidan tan

olinishi va hurmat qilinishi kerak. Ular huquqiy davlat, demokratik jamiyat va xalqaro munosabatlarning ajralmas qismi hisoblanadi.

Inson huquqlari g‘oyasi qadimdan mavjud bo‘lib, u turli falsafiy, diniy va huquqiy an’analarda aks etgan. Qadimgi davrlardan boshlab inson huquqlari tenglik, erkinlik va adolat tamoyillari asosida shakllangan.

Qadimgi Yunoniston va Rimda inson huquqlari haqida ilk g‘oyalar shakllangan. Masalan, **Aristotel**[1] insonning tabiiy huquqlarini muhokama qilgan bo‘lsa**, Rim** huquqida shaxsning huquqlari va majburiyatlari belgilangan[2]. O‘rta asrlarda esa xristianlik va islom dini inson qadr-qimmatini e’tirof etish va uni hurmat qilish tamoyillarini ilgari surgan.

**1215-yilda** qabul qilingan **Magna Charta** inson erkinliklarini himoya qilish bo‘yicha dastlabki huquqiy hujjatlardan biri bo‘ldi. Ushbu hujjat qirol hokimiyatini cheklab, fuqarolarning ayrim huquqlarini kafolatlagan[3].

**1776-yil 12-iyunda AQSHning Virjina shtatida Inson huquqlari deklaratsiyasi qabul qilingan.** Undan 1776-yilgi AQSH Mustaqillik deklaratsiyaning inson huquqlari qismidan keng foydalanilgan. Keyinchalik Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini ishlab chiqishda ham ushbu hujjatga murojaat qilingan[4].

**Tarixga nazar solsak,** inson huquqlariga oid hujjat fors podshosi Kir II tomonidan miloddan avvalgi 539-yilda Bobil ustidan qozonilgan g’alabadan keyin yozdirilgan bo’lib, 1971-yilda BMT uni barcha rasmiy tillarda tarjima qilgan. Bu noyob hujjat 1879-yilda Bobildagi arxeoligik qazishma ishlari vaqtida topilgan va ushbu hujjat hozilga kelib Londondagi Britaniya muzeyidagi saqlanmoqda[5].

Inson huquqlari himoyasi zamonaviy huquqiy davlatning asosiy ustunlaridan biri hisoblanadi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, inson huquqlarini xalqaro miqyosda kafolatlash va himoya qilish

[1] Aristotles - Nicomachean Ethics.pdf
[2] (PDF) The Corpus Juris Civilis
[3] Magna Carta, 1225 (Chapter 12) - Magna Carta
[4] F.Yusupova inson huquqlari- T.: TDYU. 2024.- 6b
[5] F.Yusupova inson huquqlari- T.: TDYU. 2024.- 7b

global siyosatning muhim yoʻnalishiga aylandi. **Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan 1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi** hamda inson huquqlari boʻyicha boshqa xalqaro huquqiy hujjatlar davlatlarni oʻz fuqarolarining huquq va erkinliklarini taʼminlashga majbur qildi.

Oʻzbekiston mustaqillikka erishgach, inson huquqlarini himoya qilish sohasida keng qamrovli islohotlarni amalga oshirdi. Bu borada Konstitutsiya, qonunchilik bazasi, davlat siyosati va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik asosiy yoʻnalishlar sifatida belgilandi. **Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik va siyosiy huquqlar toʻgʻrisidagi xalqaro pakt, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar toʻgʻrisidagi xalqaro pakt, Qiynoqlarga qarshi konvensiya, Bolalar huquqlari toʻgʻrisidagi konvensiya** kabi muhim xalqaro shartnomalarga qoʻshildi.

Bugungi kunda inson huquqlarini taʼminlash faqat huquqiy normativ-huquqiy hujjatlar mavjudligi bilan cheklanib qolmaydi, balki ularning amaliyotga joriy etilishi, real natijalar berishi va jamiyatda samarali ishlashi talab etiladi.

**Inson huquqi** - bu jamiyatning muhim ijtimoyi hodisasi hisoblanib, shaxs, jamiyat va davlatning o'zaro munosabatlarini tartibga solib turuvchi normative me'yorlar yig'indisidir. Inson huquqi davlat tomonidan o'rnatilgan, qonun asosida mustahkamlangan, jamiyatning har bir a'zosiga taaluqli bo'lgan, yashash, turmush tarzini belgilash, o'z xatti-harakatlarini to'g'ri amalga oshirish, unga berilgan imtiyozlardan foydalanish va jamoatchilik faoliyatini samarali olib borish imkoniyati, deb tushunish mumkin[6].

**Marerial va metodlar**

Mazkur tadqiqot ishida quyidagi masalalar tahlil qilinadi: birinchidan, Oʻzbekistonda inson huquqlarini himoya qilishda milliy qonunchilik va xalqaro huquqiy hujjatlarning oʻrni va ahamiyati, inson huquqlari himoyasini taʼminlashda sud, prokuratura, Ombudsman va boshqa institutlarning faoliyati; ikkinchidan, inson huquqlarini amalda taʼminlashning dolzarb muammolari va ularni bartaraf etish yoʻllari, milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga

[6] O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi unversiteti. Inson huquqi;- T :.2021

moslashtirish zaruriyati aniqlash hamda amaliyotdagi holatni baholash.

Yuoqorida ko‘rsatib o‘tilgan masalalarga javob topish maqsadida mazkur tadqiqot ishida tarixiy, tahliliy, tizimli-tuzilmaviy, qiyosiy-huquqiy, sotsiologik va statistik metodlar keng qo‘llanildi. Xususan, xalqaro tajriba va milliy qonunchilik hujjatlari qiyosiy tahlil qilindi, sud amaliyoti va milliy institutlar faoliyatining empirik tahlili amalga oshirildi.

**Tadqiqot natijalari**

Inson huquqlari – bu har bir inson tug‘ilishidan boshlab ega bo‘ladigan muhim huquq va erkinliklardir. Ularni himoya qilish va ta’minlash har bir demokratik jamiyatning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin inson huquqlarini himoya qilish va ularga rioya qilish yo‘lida sezilarli natijalarga erishdi. Bu jarayonning asosiy maqsadi fuqarolar huquqlarini himoya qilish, ularni amalga oshirish uchun zarur imkoniyatlarni yaratish va milliy qonunchilikni xalqaro huquq me’yorlariga moslashtirishdan iborat.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab, O‘zbekiston o‘z oldiga demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish maqsadini qo‘ydi, bu erda asosiy o‘rin odam, uning huquqlari va manfaatlariga berilgan. Mustaqil rivojlanishning 25 yillik yo‘lini tahlil qilganda, jamiyat va davlatning barcha sohalarida katta yutuqlar va muvaffaqiyatlarga erishgan ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy islohotlar amalga oshirilganini to‘liq ishonch bilan ayta olamiz.

Huquq tizimining va iqtisodiyotning liberallashuvi, davlatning demokratizatsiyasi va modernizatsiyasi – bu jarayonlar O‘zbekistonda bosqichma-bosqich va o‘zaro bog‘liq ravishda, milliy sharoitlar va xalqaro eng yaxshi tajribalar asosida davom ettirilmoqda. Demokratik davlatning muhim tarkibiy qismi kuchli va adolatli huquqiy tizim bo‘lib, u fuqarolarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish kafolatlarini taqdim etadi va bu o‘z navbatida davlatning taraqqiyoti va farovonligi uchun sharoit yaratadi.

Inson huquqi – bu demokratik huquqiy davlatning eng muhim belgisidir. Inson huquqini qonunda va amalda ta’minlay olmgan

jamiyat demokratik davlat hisoblanmaydi. Shuning uchun davlat inson huquqini o'z milliy huquq ta'siri(yurisdiksiyasi)ga olar ekann, demak har bir davlatning milliy huquq tizimida inson huquq sohasi mavjud, deb e'tirof etish mumkin[7]

Inson huquqlari jahonda yetakchi maqomga ega. Har qanday rivojlangan demokratik fuqarolik jamiyatini barpo etishda inson huquqlari roliga yetarli baho bermaslik mumkin emas. Asosiy huquq va erkinliklarning rag'batlantirilishi hamda himoyalanishi yanada muhimrog'i, jamiyatda har bir inson huquqlari kafolatlarining amaldagi tizimining tashkil etilishi huquqiy davlat qurishning bosh sharti hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi o'zining ichki va tashqi siyosatida **BMT ning ikkinchi Umumjahon konferensiyasida 1993-yili tasdiqlangan "Inson huquq va erkinliklarining universalligi[8]"** talablariga qat'iy rioya etib, ular himoyasi barcha davlatlarni qonuniy ravishda tashvishlantirib turuvchi muammo ekanligi haqiqatidan kelib chiqadi. Bugun jahonda 300 dan ortiq hujjat inson va fuqarolar huquqi sohasidagi xalqaro-huquqiy hujjatlar tizimini tashkil etadi. Ularning aksariyatini BMT ning xalqaro-huquqiy hujjatlari tashkil etadi. Universal maqomdagi hujjatlardan tashqari, inson huquqlarini ta'minlash va himoyalashning mintaqaviy tizimlari faol shakillantirmoqda.

O'zbekiston inson huquqlari bo'yicha 80 dan ortiq xalqaro hujjatlarga, jumladan BMTning 6 ta asosiy shartnomasi va 4 ta fakultativ protokoliga qo'shilgan. Mamlakatimiz ularning amalga oshirilishi yuzasidan BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashi va shartnomaviy qo'mitalariga muntazam ravishda milliy ma'ruzalarni taqdim etib kelmoqda.[9]

**Inson huquqlari –** konstitutsiyaning muhim tarkibiy qismidir. Konstitutsiyaga muvofiq inson va davlat munosabatlarida ustuvorlik shaxsga beriladi. **O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 54-moddasining** birinchi qismida, "Inson huquq va erkinliklarini

[7] O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi unversiteti. Inson huquqi;- T :.2021
[8] O`zbekistonda inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari. O'zbekiston Respublikasining Davlat ramzlari
[9] Inson huquqlari bo'yicha milliy strategiya qabul qilindi | NORMA.UZ

ta'minlash davlatning eng oliy maqsadi hisoblanadi”[10] deb belgilab qo'yilgan, bu yuqorida aytib o'tilgan prinsipning huquqiy asosi hisoblanadi.

Konstitutsiya qoidalarini tahlil etib, undan inson huquqlari mazmun va mohiyatini belgilab beruvchi quyidagi muhim xususiyatlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Avvalombor inson huquqlari va erkinliklarini tan olish va himoya qilish davlatning alohida majburiyati ekanligiga urg‘u berib o‘tish lozim. **Ikkinchidan,** Asosiy qonunda o‘z tasdig‘ini topgan inson huquqlari va erkinliklari ro‘yxati asosiy xalqaro-huquqiy hujjatlar qoidlariga muvofiq keladi. Ushbu o‘rinda ta’kidlab o‘tish joizki, inson huquqlari sohasida milliy qonunchilikka nisbatan xalqaro huquq normalarining ustuvorligi belgilab qo‘yilgan. **Uchinchidan,** Konstitutsiya qoidalarida tabiiy huquq nazariyasi o‘z ifodasini topdi. Har bir inson tug‘ilganidan muayyan huquqlarga ega bo‘lishi qoidasi mustahkamlab qo‘yildi. **To‘rtinchidan**, barchaning qonun oldida tengligi va eng muhimi Konstitutsiyada fuqarolarning kafolatlangan sud himoyasiga ega bo‘lishlari qoidasi o‘z tasdig‘ini topdi. **Beshinchidan,** inson huquqlari va erkinliklarini amalga oshirish boshqa shaxslarning huquqlariga daxl qilmasligi qoidasi mustahkamlab qo‘yildi[11]

O’zbekiston Respublikasi inson huquqlarini ta’minlash borasida mustahkam huquqiy bazaga ega. Eng avvalo, **O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi** inson huquq va erkinliklarini kafolatlovchi asosiy hujjat hisoblanadi.

Konstitutsiyaning ikkinchi bo’limi **inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlarini**[12] belgilaydi.

Xususan:

- **13-moddada** davlatning oliy qadriyati inson huquqlari va erkinliklari ekanligi ta’kidlangan.
- **20-moddada** har bir fuqaro o’z huquqlaridan foydalanish va ularni sud orqali himoya qilish mumkinligi ko’rsatilgan.

[10] 30.04.2023. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
[11] Саидов А., Тожихонов У. Давлат ва ҳуқуқ назарияси: икки жилдли. 2-жилд.Ҳуқуқ назарияси – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ академияси, 2001. – 447-бет.
[12] 30.04.2023. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

- **25-moddada** har bir insonning yashash huquqi daxlsizligi belgilangan.
- **26-moddada** qiynoq va zo’ravonlikka qarshi kafolatlar mustahlab qoyilgan.

O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning inson huquqini tartibga soluvchi normalariga Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining asosiy tamoyillari to’la singdirildi. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida inson huquqiga sodiqlik, Respublika fuqarolarning munosib hayot kechirilishi, fuqarolar tinchligini ta’minlash ustuvor vazifa sifatida belgilanib, inson, uning hayoti erkinligi, sha’ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi[13] deb belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi inson huquqlarini ta’minlash borasida mustahkam huquqiy asosga ega bo‘lsa-da, amaliyotda ushbu huquqlarning to‘liq ta’minlanishi va himoya qilinishi bilan bog‘liq muammolar mavjud. Konstitutsiyada inson huquqlari oliy qadriyat sifatida belgilangan bo‘lsa-da, bu huquqlarni real hayotda amalga oshirish uchun samarali mexanizmlar va institutlarning mustahkam ishlashi zarur.

O‘zbekistonda milliy qonunchilikning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri – bu inson huquqlari omilining oliy siyosiy-huquqiy qadriyat sifatida belgilanganligidir. Ushbu qoida mamlakatimizda olib borilayotgan huquqiy islohotlarning mazmun va mohiyati hamda ustuvor yo‘nalishlarini belgilashda muhim o‘rin tutadi. Avvalari manfaatlar yoki huquqlar ustuvorligi birinchi navbatda davlat manfaatlariga berilgani ma’lum. Mazkur manfaatlar jamoat manfaatlari deb belgilansada, inson va jamiyat manfaatlari bo‘ysundirilgan holatda bo‘lib, doim ham shaxs erkinligi, jamiyat a’zolari huquqlari inobatga olinmagan. Afsuski bir necha o‘n yillar mobaynida insonlar dunyoqarashida shakllanib ulgurgan qator salbiy illatlar ijtimoiy munosabatlarda, mavjud voqelikda ham o‘z aksini topmoqda. «Ming afsuski, - deb yozadi **I.A.Karimov, - Konstitutsiyamizda** o‘z echimi va qarorini topgan eng muhim talab –

[13] Узбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Узбекистон . Республикаси Конституцияси кабул килинганинининг 27 йиллигига багишланган тантанали маросимдаги маврузаси. //Халк сузи, 2019 йил 9 декабрь

inson huquqining davlat huquqidan ustuvorligi tamoyili amaldagi qonunchiligimizda, davlat va huquqiy-ma'muriy idoralar faoliyatida oʻz tasdigʻi va ijrosini toʻliq topolmayapti. Amaliyotda biz koʻproq eski kayfiyatda, ya'ni koʻproq davlat manfaatlarini koʻzlab, davlat manfaatlarini qoʻriqlab ish tutmoqdamiz. Inson manfaatlari huquqiy tajribamizda eng yuksak va eng ustun qadriyat boʻlishini barchamizning ongimizga singdirish juda-juda ogʻir kechmoqda»[14]

Mustaqillik yillarida mamlakatda inson huquqlarini himoya qilish bilan shug'ullanuvchi davlat tashkilotlari tizimi shakllandi. Bu tizimda an'anaviy sudlov va huquqni muhofaza qilish organlaridan iborat bo'lga sudlov organlari bilan bir qatorda, inson huquqlari bo'yicha nosudlov organlari ham shakklandi.

**O'zbekiston Respublikasining adliya organlari** inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash tizimida muhim ahamiyat kasb etib, an'anaviy tazda huquqni qo'llovchi va huquqni muhofaza qiluvchi organlar sirasiga kiradi. Adliya vazirligi tomonidan ijtimoiy-siyosiy hayotni, davlat tuzilishini, shu jumladan, sud-huquq sohasini erkinlashtirish, insonning huquqva erkinligini himoya qilishni ta'minlashga yo'naltirilgan qonunlar ijrosini ta'minlash bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlar amalga oshirilmoqda.Vazirlikning bevosita ishtirokida inson huquqlarini, tadbirkorlar va xususiy mulk egalarining qonuniy manfaatlarini himoya qilishning samarali mexanizimlari yaratildi, huquqni qo'llash amaoliyatii doimiy tahlil etib borish va monitoring qilish hamda amaldagi qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha asosli takliflar ishlab chiqish tizimi joriy qilindi va bular **"Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar toʻgʻrisida"**[15] qarorida belgilangan.

Inson huquqlarini **O'zbekiston Respublikasining sud organlari orqali himoya qilish** inson huquqlarini va erkinliklarining himoya qilish mexanizimining tarkibiy va hal qiluvchi qismidir. Chunki sud buzilgan inson huquqlari va erkinliklarini tiklash tizimida eng muhim vosita hisoblanadi. Har bir shaxsning huquq va erkinliklarini sud

[14] И.А.Каримов. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. 7-том. – Т.: «Ўзбекистон», 1999. – 249 250-бет.
[15] PQ-3666-сон 13.04.2018. Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar toʻgʻrisida

tomonidan muhofaza etilishi, davlat organlari, mansabdor shaxslar va jamoat birlashmalarning noqonuniy harakatlaridan sudga shikoyat qilish huquqi kafotlanadi. O’zbekiston Respublikasida sud hokimyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimyatlardan,siyosiy partiyalardan va boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritilishi e’lon qilindi.

O‘zbekistonda mustaqil rivojlanish yillarida sud tizimini yaxshilash, uni inson huquqlarini samarali himoya qilishning asosiy kafolatiga aylantirish va sud mustaqilligini ta’minlash maqsadida bir qator islohotlar amalga oshirildi.

Birinchi "**Sudlar to‘g‘risida**"**gi qonun** 1993-yil 2-sentabrda qabul qilingan bo‘lib, unda inson huquqlari bo‘yicha xalqaro miqyosda tan olingan prinsiplardan biri bo‘lgan aybsizlik prezumpsiyasi, himoya huquqi, sud jarayonining ochiqligi va raqobat prinsiplariga asos solindi, keyinchalik bu tamoyillar yangi Jinoyat-protsessual va Fuqarolik-protsessual kodekslarida ham rivojlandi. Islohotlar bosqichida sud ishlari, mustaqil va o‘zini o‘zi qo‘llab-quvvatlaydigan sud tizimining huquqiy asoslari yaratildi[16].

Mustaqillik yillarida jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini liberallashtirish, insonparvarlashtirish va dekriminalizatsiya qilish jinoiy sud ishlarining muhim yo‘nalishiga aylangan. 2001-yilda “Jinoyat-Protsessual Kodekslariga va O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy javobgarlik kodeksiga jinoyat jazolarini liberallashtirishga oid o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida"gi qonun jamoat uchun katta ijtimoiy va siyosiy ahamiyatga ega bo‘ldi. Shunday qilib, og‘ir jinoyatlar ro‘yxati qisqartirildi, og‘ir va juda og‘ir jinoyatlar toifasidagi jinoyatlar jami **75%** ga kamaydi. Shuningdek, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazo shakllari joriy etildi[17]

Sud islohotlari davomida **2008-yil 1-yanvardan boshlab o‘lim jazosi bekor qilindi,[18]** bundan tashqari, o‘lim jazosini faqat ikki turdagi jinoyatlar - terrorizm va qasddan qotillik uchun qo‘llash mumkin, ular uchun ham kamroq jazo shakllari qo‘llanilishi mumkin.

---

[16] 162-II-сон 14.12.2000. O‘zbekiston Respublikasining “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonuniga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish haqida

[17] The rule of law is guarantor of progress and prosperity of the state | Uzbekistan

[18] PF-3641-сон 01.08.2005. O‘zbekiston Respublikasida o‘lim jazosini bekor qilish to‘g‘risida

Ayollarga, 18 yoshga to‘lmagan shaxslar va 60 yoshdan katta erkaklarga o‘lim jazosini berish mumkin emas.

Shuni aytish kerakki, inson huquqi demokratik huquqiy davlatning muhim belgilaridan biri bo’lib, u davlatning qay darajada rivojlanganligini ko'rsatuvchi asosiy mezon hisoblanadi. Inson huquqini himoya qilishni yangi pog'onaga ko'tarish maqsadida mamlakatimizda sud-huquq sohasini demokratlashtirish, barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi tamoyillarini hayotga tadbiq etish, insonparvarlik, adolat, sud hokimiyati mustaqilligini taminlash, sud protsessida tortishuvchilik, "**Xabeas korpus**" institutini kengaytirish, tergov olib borishda sud nazoratini kuchaytirish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar belgilandi[19]

**O’zbekiston Respublikasining prokuratura organlari** huquqni muhofaza qiluvchi, shu jumladan, inson huquqlarini himoya qilish tizimida muhim va asosiy o’rinlardan birini egallaydi. Qonuniylik va huquqiy tatibga rioya etish ustidan nazorat qiladigan davlat organi bo’lgan prokuratura nafaqat davlat hokimyatini mustaj]hkamlash vazifasini, balki inson va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini himoya qilish bo’yicha muhim ijtimoiy vazifani ham bajaradi. Aynan fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini davlat organlari mansabdor shaxslarning noqoniy harakatlari yoki harakatsizligidan himoya qilish O’zbekiston huquqiy davlat barpo etish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.[20]

**O'zbekiston Respublikasining prokuratura organlari o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va 2001-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi** Qonuni hamda faoliyatiga daxldor bo'lgan boshqa gonunlar asosida olib boradi. Mazkur qonunga binoan, prokuraturaning asosiy vazifalaridan biri fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish hisoblanadi[21].

**2008-yil sentabr oyida Ichki ishlar vazirligi tizimida "Inson huquqlarini himoya qilish va yuridik ta'minlash boshqarmasi"**

[19] O’zbekiston Jamoat xafvsizligi unversitet. Darslik-T;. 2021.4-bet
[20] A. Maxmudov, J. Bokiyev Prokuratura faoliyatining konstitutsiyaviy asoslari- T.: TDYU 2023
[21] Inson huquqlari: darslik / A.R. Mo minov, M.A. Tillabayev; mas'ul muharrir A.X. Saidov. - 2-nashr. - T: Adolat, 2013. - 408 b.

hamda uning joylardagi tuzilmalari tashkil etildi deb Ichki ishlar organlari tomonidan fuqarolatning huquqlari, erkinliklari va gonuniy manfaatlariga rioya etish va ularni himoya qilish ustidan nazorat olib borish mazkur boshqarmaning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan. Ichki ishlar idoralarining mansabdor shaxslari fuqarolaming murojaatlarini ko'rib chiqish chog'ida ulaming mazmunini diqqat bilan o'rganib chiqishlari lozim, shuningdek, xatlami har taraflama mufassal va xolisona ko'rib chiqish uchun qo'shimcha axborotlar, ma'lumotlar va materiallarga zarurat paydo bo'lsa, ularni to'plash, xodimlami murojaatda bayon etilgan holatni tekshirish uchun joylarga yuborishlari, shikoyatni keltirib chiqargan sabablami, sharoitlami aniqlash va bartaraf etish uchun barcha tegishli choralami ko'rishlari shart. Murojaatlami tekshirish uchun ichki ishlar idoralarining shtatsiz xodimlari, shuningdek, jamoatchilikning boshga vakillari jalb qilinishi mumkin[22].

Inson huquqlarini himoya qilishda ayniqsa, advokatura instituti-ning roli katta hisoblanadi. **Advokatura** o'z nomi bilan, avvalambor, inson huquqlarining himoyachisi hisoblanadi. O'zbekistonda advokatura institutini rivojlantirishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Advokatura instituti **O'zbekiston. Respublikasi Konstitutsiyasining 116-moddasida**[23] konstitutsiyaviy institut sifatida mustahkamlab qo'yilgan. Jumladan, unda ayblanuvchi himoyalanish huquqi bilan ta'minlanishi, tergov va sud ishini yuritishning har ganday bosqichida uning malakali yuridik yordam olish huquqi kafo-latlanishi, fugarolar, korxona, muassasa va tashkilotlarga yuridik yordam berish uchun advokatura faoliyat ko'rsatishi hamda advokaturani tashkil etish va uning ish tartibi qonun bilan belgilanishi ko'rsatib o'tilgan. **1996-yil 27-dekabrda "Advokatura to'g'risida"gi**[24]**, 1998-yil 25-dekabrda "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi**[25] **qonunlar** qabul qilindi.

Inson huquqlari va erkinliklarini muhofaza qilishning ta’sirli vositasini barpo etish, xalqaro tashkilotlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikni kengaytirish, davlat muassasalari

[22] Inson huquqlari: darslik / A.R. Mo minov, M.A. Tillabayev; mas'ul muharrir A.X. Saidov. - 2-nashr. - T: Adolat, 2013. - 410b

[23] 30.04.2023. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

[24] 349-I-сон 27.12.1996. Advokatura to‘g‘risida

[25] 721-I-сон 25.12.1998. Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida

xodimlari va aholining inson huquqlari bo'yicha madaniyatini oshirish maqsadida **BMTning Inson huquqlari va boshqaruv tizimini demokratiyalashni qo'llab-quvvatlash dasturiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 31 oktyabrdagi Farmoni bilan Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi tuzildi**. Farmonda Inson huquqlari bo'yicha Milliy markazning maqsad va asosiy vazifalari aniq belgilab qo'yildi.[26]

**Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi** davlatga qarashli idoralararo tahlil, tushuntirish va muvofiqlashtirish organi hisoblanadi. Ya'ni, mazkur organ inson huquqlari sohasida davlat boshqaruv organlari faoliyatini muvofiqlashtiradi, inson huquqlari sohasidagi ishlar milliy rejasini ishlab chiqadi, O'zbekistonning inson huquqlari bo'yicha milliy ma'ruzalarini tayyorlaydi, davlat xizmatchilari uchun esa inson huquqlari muhofazasi sohasida axborot bazasini yaratadi, ularni o'qitadi, maslahatlar beradi, tashviqot ishlarini olib boradi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, Markazning asosiy maqsadi bu ustuvor vazifalarni har tomonlama hal etish yo'li bilan Inson huquqlari sohasidagi Milliy faoliyat dasturini, huquq va erkinliklarni himoya etishning ko'p jihatli tizimini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etishdan iborat.

Ayni paytda mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan inson huquqlari bo'yicha milliy institutlardan **Oliy Majlis Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman), O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonunchilik monitoringi instituti hamda Milliy markazimiz zimmasidagi vazifalarni to'laqonli bajarish yo'lida xizmat qilib kelmoqda.**

Mamlakatimizda fuqarolar huquq va erkinliklari kafolatlarini yana-da kuchaytirish, jumladan qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llash holatlariga mutlaqo yo'l qo'ymaslik, qiynoqqa solishning barvaqt oldini olish, u bilan bog'liq murojaatlarni tezkor ravishda xolisona ko'rib chiqish, harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar saqlanadigan joylarga monitoring tashriflarini

[26] Inson huquqlarini ta'minlash — bosh maqsadimiz

muntazam amalga oshirish bo‘yicha samarali huquqiy mexanizmlarni yaratish maqsadida **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qiynoqqa solish holatlarini aniqlash va ularning oldini olish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 26.06.2021 yil PF-5163-sonli**[27] Qarori e’lon qilingan edi. Mazkur Qarorga muvofiq, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) huzuridagi ekspert guruhi negizida Ombudsman huzuridagi Qiynoq holatlarini aniqlash va ularning oldini olish bo‘yicha jamoatchilik guruhlarini tashkil etish va ularning asosiy vazifalari ko‘rsatib berildi. Ombudsman tomonidan har yili 15 martga qadar Oliy Majlis palatalariga qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi munosabat hamda jazo turlarini qo‘llash holatlarining oldini olish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma’ruzani taqdim etish va uni ommaviy axborot vositalarida e’lon qilish amaliyotini yo‘lga qo‘yish belgilab berildi[28]

Fuqarolar Ombudsman bilan o'z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga zid bo'lgan tashkilotlar yoki mansabdor shaxslar tomonidan amalga oshirilgan harakatlar yoki harakatsizliklar bo'yicha murojaat qilishlari mumkinligi ma'lum.

**Ombudsmanga yuborilgan murojaatlar bo'yicha statistik ma'lumotlar o'sish dinamikasini ko'rsatmoqda**. 2022-yilda Ombudsman 17,761 ta murojaat qabul qilgan, 2023-yilda esa bu raqam 18,622 ni tashkil etgan. 2024-yilning birinchi to'qqiz oyi mobaynida 14,172 ta murojaat qabul qilingan. Murojaatlar bo'yicha ko'rib chiqish natijalari asosida 2021-yilda 10 fuqaro ishga qaytarilgan, 2022-yilda 13 kishi, 2023-yilda esa 38 kishi ishga qaytarilgan va 2024-yilning birinchi 9 oyida 50 kishi ishga qaytarilgan. 2023-yilda Ombudsman fuqarolar va mahbuslar (qamoqxona mahbuslari) va ularning oilalari foydasiga 2 milliard 150 million so'm to'plagan, joriy yilning birinchi to'qqiz oyi uchun esa bu raqam 2 milliard 414 million so'mni tashkil etgan[29]

---

[27] ПҚ-5163-сон 26.06.2021. Қийноққа солиш ҳолатларини аниқлаш ва уларнинг олдини олиш тизимини такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида

[28] YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING ASOSIY OMILLARI

[29] The Constitution is a guarantee of human rights and freedoms

Ombudsman murojaatlari muntazam ravishda tahlil qilinadi va aholining muammolarini tizimli hal etishga qaratilgan takliflar va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha eng samarali takliflar Ombudsmanning murojaatlar bilan amaliy ishlari, aholi, davlat va nodavlat tashkilotlari, sud organlari va ekspertlar jamoatchiligi bilan to'g'ridan-to'g'ri hamkorlikda shakllanadi. Ushbu jarayonda hal etilishi kerak bo'lgan muammolar ham mavjud.

Yurtimizda inson huquqlarini ta’minlashdagi amaliy tajriba va bu bo‘yicha qonunchilikning takomillashuvi, shuningdek Ombudsman faoliyatining kuchaytirilayotganligi natijasida nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan milliy Ombudsmanning xalqaro maqomini oshirish bo‘yicha tavsiyalar berildi. Boshqacha aytganda, **Ombudsmanning Parij prinsiplariga muvofiqligi bo‘yicha “A” maqomiga da’vogarlik qilishiga** zamin yaratildi.

Parij tamoyillari inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlarning xalqaro maydonda tan olinishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu institutlar ushbu tamoyillarga rioya qilish orqali inson huquqlarini samarali himoya qilish va ilgari surishda muhim ro’l o‘ynaydi[30]

**Finlyandiya Ombudsmani** yuz yildan ziyod vaqt davomida inson huquqlarining ta’minlanishi va davlat organlarining faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirib kelmoqda. U o‘z faoliyatida fuqarolar murojaatlariga oson va tezkor tarzda javob qaytarishga, ularni ko‘rib chiqishda zamonaviy usullardan foydalanishga, jamoatchilik bilan faol muloqot qilishga intiladi. Bundan tashqari, muammolarni aniqlash hamda ularni hal etish borasida tadqiqot va tahlillarni olib boradi hamda faoliyati haqida fuqarolarni xabardor qilishga intiladi. Mahkumlarga yaratilgan sharoitlarni o‘rganish maqsadida monitoringlar o‘tkazadi. Finlyandiyadagi qamoqxonalarda asosiy e’tibor mahkumlarni tarbiyalash, kasbga o‘rgatish, ta’lim olish va sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatilishini ta’minlashga qaratiladi.[31]

O‘zbekistonda inson huquqlari va milliy qonunchilikni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohotlar

---

[30] INSON HUQUQLARI VA ERKINLIKLARINI HIMOYA qilishdagi DAVLAT SIYOSATI OMBUDSMAN FAOLIYATIDA
[31] INSON HUQUQLARI VA ERKINLIKLARINI HIMOYA qilishdagi DAVLAT SIYOSATI OMBUDSMAN FAOLIYATIDA

fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash, ularni xalqaro huquq standartlariga moslashtirish, huquqiy institutlarni mustahkamlash va sud tizimini isloh qilish borasida sezilarli yutuqlarni keltirib chiqardi. O‘zbekistonda inson huquqlari va milliy qonunchilikni rivojlantirish borasida amalga oshirilgan ishlar fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlashda mustahkam poydevor yaratdi. Davlatning ushbu sohadagi siyosati nafaqat milliy manfaatlarni himoya qilish, balki xalqaro maydonda O‘zbekistonning ijobiy imidjini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Kelgusida bu yo‘nalishdagi islohotlar yanada chuqurlashib, zamonaviy demokratik jamiyat talablariga mos qonunchilik va huquqiy tizimni shakllantirishga imkoniyat yaratadi.

**Xulosa qilib aytadigan bo’lsak,** O‘zbekistonda inson huquqlarini ta’minlash borasida mustahkam huquqiy asos yaratilgan bo‘lib, bu Konstitutsiya hamda qabul qilingan milliy va xalqaro huquqiy hujjatlarda mustahkamlab qo‘yilgan. Inson huquqlari sohasidagi islohotlar jamiyatning demokratik rivojlanishining ajralmas qismi hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, inson huquqlarining samarali himoya qilinishi faqat qonunchilik normalari bilan cheklanib qolmasligi kerak. Ushbu huquqlarning amaliyotda to‘liq ishlashi uchun mustaqil sud tizimi, inson huquqlari bo‘yicha institutlar, fuqarolik jamiyati va ommaviy axborot vositalarining erkin faoliyati zarur. O‘zbekistonda bu borada bir qator islohotlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, hali ham sud-huquq tizimining mustaqilligi, qonun ustuvorligi va huquqiy himoya mexanizmlarining takomillashtirilishi lozim. Sud amaliyoti tahlili shuni ko‘rsatadiki, ayrim holatlarda inson huquqlarini ta’minlash bo‘yicha qarorlar qabul qilingan bo‘lsa ham, ularning bajarilishi va ijrosini nazorat qilish tizimini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro standartlarga muvofiq huquqiy islohotlarni davom ettirish, inson huquqlari bo‘yicha xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish ham mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini oshiradi.

Shunday qilib, inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha milliy qonunchilikni takomillashtirish va uning amaliyotdagi samaradorligini oshirish mamlakat taraqqiyoti va fuqarolarning

huquqiy farovonligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. O‘zbekistonda inson huquqlari himoyasi bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar tizimli yondashuv orqali davom ettirilishi lozim.

**REFERENCES:**


1. O’zbekiston Jamoat xafvsizligi unversitet. Darslik-T;. 2021
2. Inson huquqlari bo‘yicha milliy strategiya qabul qilindi | NORMA.UZ
3. Саидов А., Тожихонов У. Давлат ва ҳуқуқ назарияси: икки жилдли. 2-жилд.Ҳуқуқ назарияси – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ академияси, 2001
4. 30.04.2023. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
5. Узбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Узбекистон. Республикаси Конституцияси кабул килинганининг 27 йиллигига багишланган тантанали маросимдаги маврузаси. //Халк сузи, 2019 йил 9 декабрь
6. И.А.Каримов. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. 7-том. – Т.: «Ўзбекистон», 1999.
7. PQ-3666-сон 13.04.2018. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida
8. The rule of law is guarantor of progress and prosperity of the state | Uzbekistan
9. PF-3641-сон 01.08.2005. O‘zbekiston Respublikasida o‘lim jazosini bekor qilish to‘g‘risida
10. A. Maxmudov, J. Bokiyev Prokuratura faoliyatining konstitutsiyaviy asoslari- T.: TDYU 2023
11. Inson huquqlarini ta’minlash — bosh maqsadimiz
12. YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING ASOSIY OMILLARI
13. The Constitution is a guarantee of human rights and freedoms
14. INSON HUQUQLARI VA ERKINLIKLARINI HIMOYA qilishdagi DAVLAT SIYOSATI OMBUDSMAN FAOLIYATIDA
15. Aristotles - Nicomachean Ethics.pdf

16. (PDF) The Corpus Juris Civilis
17. Magna Carta, 1225 (Chapter 12) - Magna Carta
18. F.Yusupova inson huquqlari- T.: TDYU. 2024.- 6b
19. ПҚ-5163-сон 26.06.2021. Қийноққа солиш ҳолатларини аниқлаш ва уларнинг олдини олиш тизимини такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида
20. O`zbekistonda inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari. O'zbekiston Respublikasining Davlat ramzlari

## JADIDLAR HARAKATI VA UNING ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIGA TA'SIRI

*Qodirqulova Sanam, Shodiyev Sobirjon, Shodiyeva Nasiba*

*sanamqodirqulova66@gmail.com*

*+998887280118*

*Guliston Davlat Universiteti*

**Annotatsiya**

Jadidlar harakati — XIX asr oxiri va XX asr boshlarida shakllangan, ma'rifatparvarlik va zamonaviy ta'lim g'oyalari bilan ajralib turuvchi yirik madaniy-ma'rifiy oqimdir. Ushbu harakat vakillari an'anaviy ta'lim uslublarini isloh qilish, xalqni jaholatdan chiqarish hamda milliy uyg'onish g'oyalarini ilgari surganlar. Ularning ilg'or pedagogik yondashuvlari va islohotlari bugungi O'zbekiston ta'lim tizimida ham o'z aksini topmoqda. Mazkur maqolada jadidlar harakatining asosiy g'oyalari, ularning tarixiy xizmatlari va bu merosning zamonaviy ta'limdagi izlari chuqur tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:**

jadidlar harakati, yangi usul maktablari, zamonaviy ta'lim, ma'rifatparvarlik, islohotlar, milliy uyg'onish, tarixiy meros.

**Kirish**

O‘zbekiston ta’lim tarixida Jadidlar harakati alohida o‘rin egallaydi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yuzaga kelgan bu harakat vakillari — Avloniy, Fitrat, Munavvarqori singari ziyolilar — xalqni ilm bilan qurollantirish, jaholatni yengish hamda milliy taraqqiyotga erishish yo‘lida yangi uslubdagi maktablar ochish, darsliklar yaratish, ommaviy axborot vositalari orqali ma’rifat targ‘ibotini olib borishni bosh maqsad qilib qo‘yganlar. Bugungi kunda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlarida ularning g‘oyalari hamon dolzarb bo‘lib qolmoqda.

**Muammo qo‘yilishi**

Zamonaviy ta’lim tizimida interaktiv metodlar, raqamli texnologiyalar, kreativ fikrlash kabi yo‘nalishlar keng qo‘llanilmoqda. Ammo ushbu yondashuvlarning tarixiy ildizlari, xususan, Jadidlar harakatidagi o‘xshash jihatlari ko‘plab ilmiy izlanishlarda yetarlicha yoritilmagan. Shu bois, mazkur maqola “Jadidlar harakatining zamonaviy ta’lim tizimiga qanday ta’siri bor?” degan muammoni tahlil qilishga qaratilgan.

**Maqsad va vazifalar**

Maqsad:

Jadidlar harakatining ta’limga oid g‘oya va islohotlarini o‘rganish hamda ularning zamonaviy O‘zbekiston ta’lim tizimidagi izlarini aniqlash.

Vazifalar:

Jadidlar harakatining asosiy vakillari va ularning pedagogik qarashlarini tahlil qilish;

Tarixiy ta’lim tizimi bilan hozirgi tizimni qiyosiy tahlil asosida solishtirish;

Zamonaviy ta’limdagi jadidlar merosining izlarini aniqlash;

Ushbu g‘oyalarni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini ko‘rsatish.

**Tadqiqot metodologiyasi**

Maqola yozilishida tarixiy-nazariy yondashuv hamda qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy kabi jadidlarning asarlari o‘rganildi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi ta’lim siyosatiga oid hujjatlar, islohot dasturlari, Prezident farmonlari va strategik rejalar tahlil qilindi. Qadimgi va zamonaviy ta’lim tizimlari o‘rtasidagi bog‘liqlik va tafovutlar aniqlab chiqildi.

**Jadidlarning ta’limga oid g‘oyalari**

Jadidlar madrasaviy ta’lim tizimidan farqli ravishda dunyoviy fanlarga asoslangan, yangi metodik uslub — “usuli jadid”ni taklif etganlar. Bu uslub o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini, amaliy mashg‘ulotlarni va zamonaviy fanlarni (matematika, geografiya, tabiiyot, adabiyot) o‘rganishni nazarda tutardi. Shuningdek, ular o‘qituvchi shaxsiga katta e’tibor berib, uni ma’rifatparvar, vatanparvar, halol va fidoyi inson sifatida tarbiyalashni maqsad qilganlar. Jadidlar maktablar ochish, sahna asarlari, gazeta-jurnallar orqali xalqni uyg‘otishga harakat qilganlar.

**Zamonaviy ta’limdagi aks sado**

Hozirgi O‘zbekistonda ta’limda raqamli texnologiyalar, kreativ va tanqidiy fikrlash, STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Math) yondashuvi keng joriy etilmoqda. Bu metodlar jadidlarning “bilim xalq ichiga kirsin” degan g‘oyasiga uyg‘un. “Ma’naviyat darslari”, “Milliy g‘oya” fanlarida Avloniy va boshqa jadidlar iqtiboslari keltiriladi. Shu bilan birga, pedagogik kadrlar tayyorlash tizimida ham jadidlar merosi amaliy jihatdan aks etmoqda.

**Innovatsion yondashuv**

Loyihada yangilik sifatida zamonaviy pedagogik metodlarning tarixiy ildizlarini ko‘rsatishga urinish qilindi. Jadidlar ilgari surgan yondashuvlar bugungi ta’lim strategiyasiga uyg‘un ravishda izchil davom etmoqda. Xususan, xalqchil ta’lim, fanlarni amaliyot bilan bog‘lash, milliy o‘zlikni ta’lim orqali shakllantirish kabi jihatlar zamonaviylik bilan uyg‘unlashdi.

**Amaliy ahamiyat**

Mazkur tadqiqot ta’lim siyosatini ishlab chiquvchilar, tarixchi olimlar va pedagoglar uchun foydali ilmiy-amaliy manba bo‘la oladi. O‘quv dasturlariga jadidlar qarashlarini integratsiya qilish, ularning metodik yondashuvlaridan foydalanish bo‘yicha konkret tavsiyalar ishlab chiqildi. Loyiha pedagogik texnologiyalarni boyitadi va milliy g‘ururni mustahkamlaydi.

**Xulosa**

Jadidlar harakati — bu O‘zbekiston tarixidagi eng muhim ma’rifiy yuksalishlardan biridir. Ularning ilg‘or ta’limiy qarashlari, xalqparvar yondashuvi va zamonaviylikka intilishi bugungi ta’lim siyosati bilan uzviy bog‘liq. Ta’limdagi raqamlashtirish, interaktiv metodlar, mazmuniy yangilanishlar — bularning barchasi jadidlar boshlagan yo‘lning mantiqiy davomidir. Ularning g‘oyalarini chuqur o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish orqali zamonaviy ta’limning milliy va global raqobatbardoshligini ta’minlash mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Avloniy, A. (1992). Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: Fan nashriyoti.

2. Behbudiy, M. (2006). Tanlangan asarlar. Toshkent: Ma’naviyat.

3. Abdurashidxonov, M. (2000). Milliy uyg‘onish va ta’lim. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.

4. Karimov, I. A. (2015). Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat.

5. Qodirov, N. (2019). “Jadidlar harakati va zamonaviy ta’lim tizimi.” Ta’lim va Tarbiya, №4, 15–21.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6108-son Farmoni (2020-yil 6-noyabr) – “Ta’lim tizimini raqamlashtirish strategiyasi to‘g‘risida.”

7. UNESCO (2021). Education for Sustainable Development: A roadmap. Paris: UNESCO Publishing.

8. Yusupov, B. (2022). Jadidlar pedagogik merosi va uning zamonaviy ahamiyati. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.

**BUGUNGI KUN YOSHLAR TARBIYASIDA JADID BOBOLARIMIZ O’GITLARIDAN FOYDALANISH.**

*Xasanova Nargiza Ibrogimovna,*

*Namangan viloyati Kosonsoy tumanidagi 3-son politexnikum Yoshlar ishlari bo’yicha direktor o’rinbosari*

***Annotatsiya:*** Ushbu maqola "Yoshlar tarbiyasida jadid bobolarimizning o'gitlaridan foydalanish" mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, o'z ichiga jadidchilik harakatining mohiyatini, uning yoshlar tarbiyasiga ta'sirini va zamonaviy davrda ushbu o'gitlarning qanday amalda qo'llanilishi kerakligini oladi. Maqolada jadid bobolarining ta'lim, ilm-fan, ma'naviyat va yoshlarning dunyoqarashini shakllantirishdagi ahamiyati batafsil tahlil qilinadi. Xususan, Mahmudho’ja Behbudiyning, Abdulla Avloniy va Ismoilbek G'ijduvoniy kabi jadid namoyandalari tomonidan yoshlar uchun ilgari surilgan g'oyalar va prinsiplar hozirgi kunda qanday ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatiladi. Maqola davomida yoshlarni zamonaviy bilimlarni o'zlashtirishga, mustaqil fikrlashga, ilm-fan va ma'naviyatni birlashtirib, jamiyatda o'z o'rnini topishga undash zarurligi

ta'kidlanadi. Jadid bobolarining yoshlarni ijodiy yondashuvga va yangiliklarga ochiq bo'lishga chaqirgan g'oyalari, bugungi kunda ham yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyatga ega. Maqola yakunida, jadidchilik harakatining o'gitlaridan foydalanish yoshlarni nafaqat ilmiy va madaniy jihatdan rivojlantiradi, balki ularning ijtimoiy faolligini ham oshiradi. Bu orqali yoshlar o'zlarining ma'naviy va intellektual rivojlanishiga, shuningdek, jamiyat oldidagi mas'uliyatlarini anglashga erishadilar.

***Kalit so'zlar:*** *Jadidchilik harakati, Yoshlar tarbiyasi, Ta'lim va ilm-fan, Ma'naviyat, Mahmudhoja Behbudiyning o'gitlari, Abdulla Avloniy, Ismoilbek G'ijduvoniy, Intellektual rivojlanish, Ma'naviy qadriyatlar, Innovatsiya va ijodiy yondashuv, Zamonaviy yoshlar tarbiyasi.*

**Kirish.** Jadidchilik harakati, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston va boshqa musulmon mamlakatlarida boshlangan, zamonaviy ilm-fan va ta'limni targ'ib qilgan ijtimoiy va madaniy inqilobiy harakat edi. Jadidlar, asosan, musulmon dunyosining zamonaviylashuvi va ilmiy taraqqiyoti tarafdorlari edi. Ularning maqsadi yoshlarni an'anaviy dunyoqarashdan zamonaviy bilimlarga o'tkazish, diniy ta'lim bilan birga ilm-fan va texnologiyani ham o'rgatish edi. Jadidlar yoshlarni ta'lim olishga, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishga chaqirishgan. Ularning asosiy maqsadi — yoshlarni tafakkur qilishga, o'z mustaqil fikrini shakllantirishga undash edi. Bobolarimizning o'gitlari, ayniqsa, ilm olishning, bilimga asoslangan hayot kechirishning ahamiyatiga qaratilgan edi. Jadidchilik harakati, asosan, yoshlarning intellektual rivojlanishiga qaratilgan. Mahmudhoja Behbudiyning o'gitlari: Behbudiyning ta'lim va ma'naviyatga oid o'gitlari juda ahamiyatlidir. U yoshlarni ilm-fan va madaniyatni chuqur o'rganishga chaqirgan, o'zbekistonlik yoshlar uchun yangicha o'qitish metodlarini ishlab chiqqan. Uning "yoshlar o'z vaqtida bilim olishlari kerak" degan fikri hozirgi kunda ham dolzarb. Abdulla Avloniy: Jadidlarning yetakchi namoyondalaridan biri bo'lib, yoshlarni g'oyaviy va madaniy jihatdan rivojlantirishni maqsad qilgan. Avloniy o'zining "Ma'naviyatini oshirish orqali o'zgarishlarni amalga oshirish mumkin" degan fikri bilan yoshlarni faollikka chaqirgan. Ismoilbek G'ijduvoniy ta'limning yoshlarning kelajagi uchun naqadar muhimligini ta'kidlagan va ilm-fan orqali

dunyoqarashni kengaytirishni maqsad qilgan. Quyida ushbu jadid bobomizning hayot yo’li va yoshlar tarbiyasi borasida olib borgan faoliyati to’g’risida muhim ma’lumotlar keltiriladi. Ismoilbek G'ijduvoniy (taxminan 1350-1400 yillar oralig'ida yashagan) o'z zamonining buyuk olimi, mutafakkir va pedagogi bo'lib, o'z ilmiy faoliyatida yoshlarni tarbiyalash va ta'limning muhimligini chuqur tushungan. U G'ijduvon shahrida tug'ilgan va o'z ilmiy faoliyatini bu yerdan boshlagan. Ismoilbek G'ijduvoniy, asosan, diniy ta'lim va falsafani chuqur o'rganish, ilm-fan orqali dunyoqarashni kengaytirish va yoshlarni intellektual rivojlantirishga katta e'tibor bergan. Ismoilbek G'ijduvoniy ta'limni insonning ma'naviy va intellektual rivojlanishi uchun eng asosiy vosita sifatida ko'rgan. Uning fikricha, ta'lim nafaqat ilmiy bilimlarni o'rgatish, balki yoshlarning dunyoqarashini kengaytirish va ularga hayotga munosabatni o'zgartirish orqali ularga haqiqiy inson sifatida shakllanish imkonini beradi. U o'zining pedagogik faoliyatida yoshlarni ilm-fan, ma'naviyat va axloqiy qadriyatlar bilan birlashtirishga harakat qilgan. Ismoilbek G'ijduvoniy ta'lim orqali yoshlarning dunyoqarashini kengaytirishga qaratilgan g'oyalarini ilgari surgan. U, shuningdek, ilm-fan va ta'limning insonning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishdagi ahamiyatiga katta e'tibor bergan. U yoshlarni o'qitish orqali ularning tafakkurini, mantiqiy fikrlashini va mustaqil qarorlar qabul qilish qobiliyatini shakllantirishga intilgan. G'ijduvoniyning ta'limga oid o'gitlari juda keng va chuqur bo'lib, ular insonning ruhiy, ma'naviy va ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlashga qaratilgan edi. U yoshlarni ilmni o'rgatish orqali nafaqat ularni dunyoqarashi keng bo'lgan insonlar sifatida shakllantirishga, balki jamiyatning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shishga undagan. Ismoilbek G'ijduvoniyning ta'limga oid nazariyalari hozirgi kunda ham muhim ahamiyatga ega. U yoshlarni nafaqat ilmli, balki ma'naviy jihatdan to'laqonli insonlar sifatida tarbiyalashni maqsad qilgan. Uning o'gitlariga ko'ra, ta'limda nafaqat ilmiy bilimlarni berish, balki axloqiy qadriyatlarni o'rgatish, yoshlarning yurak va ongini poklash, ularni jamiyatda ijtimoiy mas'uliyatni anglashga undash zarur. G'ijduvoniy yoshlarni tafakkur qilishga, mustaqil fikrlashga, ilmga va ma'naviyatga asoslangan hayot kechirishga chaqirgan. Uning ta'lim sohasidagi yondashuvi, hozirgi yoshlar tarbiyasida ham o'zining dolzarbligini saqlab qolgan.

Ismoilbek G'ijduvoniy ta'limni yoshlarning kelajagi uchun muhim vosita sifatida ko'rgan va ilm-fan orqali dunyoqarashni kengaytirish maqsadida o'z o'gitlarini ilgari surgan. Uning pedagogik g'oyalari va o'gitlari yoshlarni ilmli, ma'naviy jihatdan barkamol va ijtimoiy jihatdan mas'uliyatli insonlar sifatida tarbiyalashga qaratilgan bo'lib, bu g'oyalar hozirgi kunda ham yoshlar tarbiyasida ahamiyatli va foydalidir.

**Ilm-fan va ta'limga ahamiyat berish**: Jadid bobolarining ilm-fan va ta'limga berilgan e'tibori hozirgi kunda ham yoshlar uchun katta ibratdir. Bugungi kunda ham yoshlar zamonaviy ilmiy bilimlarni olishga, mustaqil fikrlashga va jahon bilan hamnafas bo'lishga intilishlari kerak.

**Ma'naviy qadriyatlar**: Jadid bobolari ma'naviyatni o'rgatishga katta e'tibor berganlar. Bugungi yoshlar uchun ham ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirish, vatanparvarlikni oshirish juda muhimdir.

**Yoshlarni intellektual rivojlanishiga yo'naltirish**: Jadidlarning ilmiy yondashuvi, yoshlarni nafaqat ta'lim olishga, balki tahlil qilish va mustaqil fikrlashga ham undagan. Bu qadriyatni hozirgi yoshlar tarbiyasiga qo'llash juda muhim. Jadidlar har doim yangi g'oyalarni qabul qilishga, yangiliklarni o'rganishga, dunyoqarashni kengaytirishga chaqirishgan. Hozirgi yoshlarni ham ijodiy fikrlash, yangiliklarga ochiq bo'lishga undash kerak. Xususan, ilmiy va texnologik taraqqiyot davrida yoshlarni innovatsiyalarni yaratish, ilm-fanni rivojlantirishga undash zarur. Jadid bobolarining yoshlar tarbiyasiga qo'shgan hissasi, bugungi kunimizda ham dolzarb ekanligini ta'kidlash lozim. Ularning o'gitlari yoshlarimizni zamonaviy dunyoqarashga ega, bilimli va ma'naviy jihatdan barkamol insonlar sifatida tarbiyalashga yordam beradi. Yoshlar tarbiyasida jadid bobolarining tajribasidan foydalanish, ulardan o'rgangan qadriyatlarni kunlik hayotimizga tatbiq etish muhim ahamiyatga ega.

## Foydalanilgan adabiyotlari ro'yxati:

1. "Jadidchilik va uning ta'lim tizimiga qo'shgan hissasi" — O'zbekiston Milliy Universiteti, Ilmiy maqola, 2018.

2. "Ismoilbek G'ijduvoniyning ilm-fan va ta'limga oid fikrlari" — Z. M. Qobilov, Tashkent, 2003.
3. "O'zbek pedagogik fikrining rivoji" — M. M. Raximov, Tashkent, 2010.
4. "Jadidchilik harakati va uning madaniy-ijtimoiy ahamiyati" — Sh. X. Muxammadiev, Tashkent, 2015.
5. "Mahmudhoja Behbudiyning ta'limga oid fikrlari" — G. N. Isroilov, Tashkent, 2006.
6. "O'zbek ta'limi tarixidan" — X. S. Khoshimov, Tashkent, 2012.
7. "Ismoilbek G'ijduvoniyning ilm-fan va pedagogik merosi" — S. M. To'raqulov, Buxoro, 2001.
8. "Jadidlar va O'zbek ta'limi" — M. M. Yusupov, Samarqand, 2007.
9. "Abdulla Avloniy va O'zbek ta'lim tizimi" — Z. Sh. Ergasheva, Tashkent, 2013.
10. "O'zbek madaniyati va ta'lim taraqqiyoti: Jadidchilikning roli" — A. T. Turdiyev, Tashkent, 2019.
11. "Ismoilbek G'ijduvoniyning diniy va falsafiy qarashlari" — M. M. Usmonov, Tashkent, 2004.

## DETERMINATION OF THE CLINICAL-NEURALOGICAL CHARACTERISTICS OF MULTIPLE SCLEROSIS AND THE RELATIONSHIP OF S-100 OXIDE AND LIPOPROTEIDS

*Yakubova Markhamat Mirakramovna*

*Ruzumova Nilufar Ikram kizi*

*[1] Professor of the Department of Neurology and Medical Psychology of the Tashkent Medical Academy, Ph.D.*

*[2] Clinical resident of the Department of Neurology and Medical Psychology of the Tashkent Medical Academy.*

**Abstract.** It remains urgent to carry out scientific research on the identification of pathogenetic factors in the development of multiple sclerosis, clinical-neurological features, clinical forms of the disease, course, gender ratio. In particular, it is important to determine S-100

protein levels and lipoprotein metabolism, factors affecting degeneration and demyelination, and the role of lipoprotein metabolism in the degeneration process in multiple sclerosis.

**Keywords**. 100 proteins, sclerosis, dysmetabolic process, multiple sclerosis.

Multiple sclerosis is a disease that causes disability and serious complications, as well as significant deterioration of the quality of life. According to the World Health Organization (WHO), more than 2.8 million patients are diagnosed with multiple sclerosis in the world, and 1 million patients are added to these numbers every year. Recurrence of exacerbations and periods of remission in different forms and lack of specific symptoms in the initial period of the disease cause an increase in mortality rates. Early dysfunctional changes in patients with multiple sclerosis, low treatment efficiency lead to maladjustment, and determine the medical and social importance of the problem. (2,3)

A number of scientific studies aimed at identifying pathogenetic processes occurring in multiple sclerosis, diagnosis and optimization of treatment criteria are being carried out worldwide. In this regard, to determine the risk factors for the development of the disease and the nature of the course of the disease ; determination of measures to prevent complications; to determine the clinical-pathogenetic structure of the disease; development of an algorithm for early diagnosis of the disease ; optimization of the individual approach to treatment; scientific research aimed at the implementation of modern innovative pharmacological treatment is being carried out. Assessment of prognostic factors in multiple sclerosis, achieving high efficiency in treatment processes, elimination of neurological disadaptation, and prevention of complications that may develop in patients are urgent issues. (4)

In our country, large-scale targeted measures are currently being implemented to improve the medical service, social protection and health care system provided to the population. Particular attention is paid to the specified tasks such as "prevention of diseases and their diagnosis, wide introduction of modern technologies, provision of high-quality and high-quality medical care". In the implementation of

these tasks, it is important to improve the quality and efficiency of medical and social care for patients with multiple sclerosis, to reduce disability indicators, to form social adaptation in patients, to use modern technologies in the provision of qualified medical care, and to create optimal treatment measures. (5)

**The purpose of the study** is to determine the clinical and neurological characteristics of multiple sclerosis and, in this case, the relationship between neurospecific S-100 oxygen and lipoproteins in the pathogenesis of the disease.

**Research materials and methods**.

100 patients diagnosed with multiple sclerosis took part in the scientific research, they were treated inpatient and outpatient at the 3rd clinic of the Tashkent Medical Academy and the 1st Republican Clinical Hospital. Biochemical tests were performed in 54 patients. The control group consisted of 20 healthy individuals. Patients' age ranged from 19 to 55 years, with an average of 34.4±0.9 young. The average duration of the disease was 6.46±0.62 years.

30 of the total cases (30%) were men and their average age was 33.5±0.8 years. Women were observed in 70 (70%) cases, their average age was 34.8±0.8 years. The results of the study were compared with a control group consisting of 20 practical healthy individuals (7 males (35%) and 13 females (65%)) matched by sex and age (mean age 34.1±0.5). The control group was considered to have no subjective complaints and no objective neurological symptoms.

Patients were evaluated based on the classification proposed by the ICD-10 (adopted by the 43rd International Assembly in 1990) , in which patients were divided into three groups: group 1 consisted of 6 (6%) patients with the cerebral form of multiple sclerosis, and group 2 - patients with multiple sclerosis 67 (67%) patients with cerebrospinal form, 26 (26%) patients with cerebral form made up the 3rd group.

Among 100 patients with multiple sclerosis: cerebrospinal form, 67 patients, 17 men (25.3%) and 50 women (74.6%). 6 patients with cerebral form, 2 men (40%) and 4 women (60%). 27 patients with cerebellum, 11 men (40%) and 16 (60%) women. The ratio between women and men in the cerebrospinal form of multiple sclerosis is

1:2.9; 1:2 ratio in the cerebral form; in the form of a brain, the ratio was 1:1.5. Patients were divided into groups according to the course of multiple sclerosis. Of them, 19 patients had secondary progression; 5 patients with primary progression; 73 patients with remitting course, 3 with progressive exacerbation. It was divided into 3 groups according to the duration of the disease. 33 33% of patients whose illness lasted up to 5 years, 37 (37%) patients whose illness lasted 5-10 years, and 30 (30%) patients whose illness lasted longer than 10 years. So, the cerebrospinal form of multiple sclerosis and the remitting course made up 70%. Gradation of these patients by gender is presented in Table 1.

**Distribution of patients with multiple sclerosis according to age and sex**

| **According to the clinical form of multiple sclerosis** | **Total number of patients** | **A woman** | **male** |
|---|---|---|---|
| Cerebrospinal form | 67 (67%) | 50(74.6) | 17(25.3%) |
| Cerebral form | 6 (6%) | 4(61%) | 2(39%) |
| Brain shape | 27(27%) | 16(59%) | 11(41%) |
| According to the course of multiple sclerosis | | | |
| Remitrative | 73(73%) | 51(69.8) | 22(30.2%) |
| Secondary promoter | 19(19%) | 14(73%) | 5(27%) |
| Primary-progressor | 5(5%) | 3(60%) | 2(40%) |
| With secondary progressive outbreaks | 3(3%) | 2(66%) | 1(34%) |
| According to the duration of multiple sclerosis | | | |
| The duration is 5 | 35 (35%) | 30(85.7%) | 5(14.3%) |

| | | | |
|---|---|---|---|
| years | | | |
| The duration is up to 5-10 years | 35 (37%) | 27(77%) | 8(23%) |
| patients whose disease lasted longer than 10 years | 30(30%) | 13(43%) | 16(57%) |

Clinical-neurological, neurovisualization, molecular-genetic and morphological examinations were performed on all examined patients. Nervous system activity in patients was evaluated using Kurtske's scale adopted in 1983 and the modified EDSS (Expanded Disability Status Scale) was used to assess the level of disability. When evaluating patients according to the EDSS scale, the activity of the following systems was taken into account: pyramidal system; visual system; brain stem activity; brain activity; activity of the sensory system; activities of the pelvic organs; higher nervous system activity.

In order to determine the state of the cerebral structure of the MNS, the anatomical substrate - the localization of the demyelination centers, a neurovisualization examination consisting of an MRI of the brain was carried out. An open-type "OPART" Toshiba device with a magnetic field strength of 1.5 Tesla was used.

Biochemical examination was performed in order to determine the biomarker of TS in the blood serum of patients. The ELISA kit for S-100 Salcium Binding protein B (S-100B) was used to detect the neurospecific S-100 protein. A laboratory examination was carried out using the immunoenzyme analysis (IFA) method. In the determination of lipoprotein fractions, cholesterol HDL LPVP IFCC 5*100 ml #1F03100(dialabGmbX, AUSTRIA); cholesterol LDL LPNP test kit 5*50 ml #1F05365(dialabGmbX, AUSTRIA); cholesterol VLDL LPONP test kit 5*50 ml #1F07345(dialabGmbX, AUSTRIA) were used. The amount of S-100 in blood serum and the amount of lipoprotein fractions were analyzed and compared. The total cholesterol content and atherogenic coefficient in the patient were calculated using formulas.

Total cholesterol = ZPLP+ZYuLP+ZJYuLP

A K (Atherogenic coefficient) = (total XS – ZYuLP)/ZYuLPP.

The coefficient of atherogenicity is 2-3.

In the statistical processing of the obtained results, the variational parametric and non-parametric statistics methods were used, taking into account the average arithmetic magnitude (M), mean square shift (± s), arithmetic mean errors (±μ) and relative magnitudes (frequency %) of the studied indicator. The statistical significance of the changes obtained in the comparison of mean sizes was determined by Student's test (t) 12 and the probability of error was calculated (P). A confidence level of R<0.05 was accepted for a change in statistical significance. Pearson's pairwise correlation coefficient (r) was calculated to analyze the correlation of indicators. A correlation was found between the amount of S-100 protein and ZPLP. All the above-mentioned research object and its methods are shown in tables.

**Research results.**

Patients with multiple sclerosis were analyzed according to the course of the disease: the primary progressive course of the disease begins late and is mainly manifested by changes in the cerebrum and pyramidal system (80-85%), strong pathological changes were observed in almost all systems; the relapsing course of multiple sclerosis (73%) was characterized by an early onset and slow development of neurological deficit, which may later progress to a secondary progressive course with an increase in exacerbations; in the secondary progressive course of multiple sclerosis (19%) the first remission period is short, exacerbations occur once a year, but the neurological deficit is stronger than in the remitting course; the primary progressive course of multiple sclerosis (5%) begins late, but the development is very rapid (within a year), the neurological deficit is high. We also analyzed system dysfunction in patients according to the course of the disease. The function of the pelvic organs and the pyramidal system are disturbed to the extent expressed in almost all types of the disease. This is one of the main indicators of disability. In order to assess the level of disability in patients, we observed the condition of patients according to the EDSS scale. In the results, we can see that the indicators of the EDSS scale increase as the duration

of the disease increases. Sometimes it was observed that the scale increased by 1-2 points during each exacerbation.

100 patients with multiple sclerosis underwent MRI to evaluate foci of demyelination. We divided MRI findings into groups based on the size of pathological foci. According to him, 31% of patients have small (0.2-0.8 cm) foci; 45% of patients have medium-sized (0.9-1.4 cm) foci; In 24% of patients, pathological foci of large volume (1.5-1.9%) were detected. Foci of demyelination are mainly located in the subcortical (77%) and periventricular-subcortical area (60%). On MRI, 83% of patients had enlargement of the lateral ventricles and 78% of patients had asymmetry of the lateral ventricles.

Incidence of focal changes on MRI in multiple sclerosis.

| Area of damage | Multiple sclerosis n-100 (%) |
|---|---|
| A single subcortical focus | 4 (4%) |
| A single periventricular focus | 8 (8%) |
| Multiple subcortical foci | 11 (11%) |
| Multiple periventricular foci | 77 (77%) |
| Dilation of the lateral ventricles | 83 (83%) |
| Asymmetry of lateral ventricles | 78 (78%) |

The relationship between the size of MRI foci, the duration of the disease and the

indicators of the EDSS scale was analyzed. The result of this correlation analysis is

presented in Table 3.

Table 3

**Correlation of the size of MRI foci with the duration of the disease and the indicators of the EDSS scale**

| The number of Patients<br><br>N=100 | Duration of the disease | Focal size on brain MRI | EDSS scale<br><br>Ball |
|---|---|---|---|
| N=35 | 5 years | 0.2-0.8mm | 6.0 points |
| N = 37 | 5-10 years | 0.9-1.4mm | 7.2 points |
| N = 30 | 10 years | 1.4-1.9mm | 8 points |

The serum of 54 patients and 20 healthy controls was examined to study neuron-specific S100 protein and lipoproteins in patients with multiple sclerosis. Of these, the number of patients with TS was 54 (37 women and 17 men) (the main group). Patients are 21 to 45 years old. The average age is 33.82±0.9 years. There were 20 healthy people in the control group (13 women and 7 men). The average age is 34.11±0.1 years. The obtained results show that the amount of S100 in the blood serum of patients in the main group was 0.115±0.006 μg/l ($r<0.05$) (in a healthy person, this indicator is less than 0.09). In the control group, the level of s-100 protein was equal to 0.05±0.05. That is, a high level of S100 protein was found in patients. According to the results of the analysis, a high level of s-100 protein was detected in 69% (37) of TS patients.

A number of external environmental factors influence the development and activation of the degeneration process in multiple sclerosis. According to the conclusions of recent years of scientific research in multiple sclerosis stresses the importance of a special low-fat diet. That is, lipoprotein metabolism is also important in the development of multiple sclerosis. That is why we use lipoproteins in patients with multiple sclerosis we studied the quantitative change. We examined 3 groups of lipoproteins in mine analysis in 54 patients. The results of the analysis showed that only the amount of ZPLPs

changed pathologically (3.53mmol/l) in patients. ZYuLP (0.7-1.9mmol/l) and ZJPLP (0.13-1.63mmol/l) indicators remain normal. The coefficient of atherogenicity was calculated using the special formulas given above. The coefficient of atherogenicity was also determined in patients with normal values. Therefore, it can be considered that the amount of ZPLPs in patients is high not due to atherosclerosis, but due to degeneration.

**CONCLUSIONS:**

1. During the exacerbation of multiple sclerosis, due to the high concentration of s-100 protein in the blood serum of patients, this indicator can be used to distinguish the exacerbation and remission periods of multiple sclerosis and predict neurological maladaptation.

2. One of the prognostic factors of the course of multiple sclerosis can be an increase in the amount of low-density lipoproteins in the body, including the fact that this indicator increases from year to year in the primary and secondary progressive course of multiple sclerosis, as the disease progresses and the duration of the disease increases, low-density lipoproteins directly activate the demyelination process and may be a sign of aggravation of the course of the disease.

3. The observation that there is a correlation between the levels of s-100 protein and low-density lipoproteins in patients with multiple sclerosis allows for a deep study of the amount of neurospecific s-100 oxyl and low-density lipoproteins in patients with multiple sclerosis, prognosis of the disease, comparative diagnosis, and treatment procedures based on this. helps to be carried out on time.

**Literature:**

1. Yakubova M.M., Mukhiddinova M.A. Determination of activity and degree of invalidization of patients at the stage of diffuse sclerosis/Materialy conference Journal of Neurology Tashkent, 2018. - No. 4. - S.-100 (14.00.00, #4).

2. Yakubova M.M., Mukhiddinova M.A. Rol neurospetsificheskogo belka s-100 pri razvitii rasseyannogo sklerosa/Report conference. Journal Neurology Tashkent, 2019. - #4. - S.-103-104 (14.00.00, #4).

3. Yakubova MM, Mukhiddinova MA, Parpiyeva YR Dependence of indicators of quality of life of patients with multiple sclerosis from the degree of disabilities Postrnyy doklad //Uluslararasi Turk DunyasiMultiple Sclerosis Kongresi International Turkic World Congress of Multiple Sclerosis Abstracts book. Turkey, 2019. pp-14

4. Mukhiddinova MA The value of neuro-specific protein S-100 and lipoproteins in the development of multiple sclerosis/ Materialy konferentsii For participating in theinternational scientific and practical conference USA, September 2020 pp72-74

5. Michetti F., Gazzolo D. S100B protein in biological fluids: a tool for perinatal medicine //Clinical Chemistry. - 2002. - T. 48. – no. 12. - S. 2097-2104.

6. Valentina, I. "Biomarkers in Multiple Sclerosis: Analysis of the Present Advantages and Look to the Future." J Psychol Neurosci 5.3 (2023): 1-14.

## BACHADON BO`YIN EROZIYASI

*Satibaldiyeva Zebo Shuxratullayevna*

*Kokand Unversetit Andijon Fillali*

*zebosatbaldiyeva@gmail.com*

*Tel:+998(99)-250-90-96*

*Nosirova Saodatxon Nodirjon qizi*

*Kokand Unversetit Andijon Filliali*

**Annotatsiya**:Bachadon bo`yin eroziyasi-Bachadon bo`yin shilliq qavatining yuza qismi shikastlanishi hisoblanadi.Ushbu maqolada bachadon bo`yin eroziyasini etiologiyasini,asosiy xafli omillarni,kilinik

belgilari,tashxis qo`yish usullari va zamonaviy usullarni muhokam qilinadi.

**Annotation.** Cervical erosion is a pathological condition characterized by damage to the superficial layer of the cervical mucosa. This condition is often associated with various gynecological disorders and can develop due to infections, hormonal imbalances, or mechanical injuries. In this article, we will discuss the etiology of cervical erosion, the main risk factors that contribute to its development, its clinical manifestations, methods of diagnosis, and modern treatment approaches. Understanding these aspects is crucial for timely detection and effective management of the condition, helping to prevent potential complications and ensuring women’s reproductive health.

**Аннотация:** Эрозия шейки матки – это повреждение поверхности слизистой оболочки шейки матки. В данной статье рассмотрена этиология эрозии шейки матки, основные вредные факторы, клиническая симптоматика, методы диагностики и современные методы

**Kalit so`zlari:**Bachadon bo`yin eroziyasi, etiologiyasi, tashxis qo`yish ,davolash va jarrohlik usullari.

**Bachadon bo'yni eroziyasi** – bachadon bo'yni vaginal qismining shilliq qavatidagi yazvali o'zgarishi. Bu eng keng tarqalgan ginekologik kasalliklardan biridir va statistik ma'lumotlarga ko'ra, har oltinchi ayoldan birida uchraydi.

Bachadon bo'yni bachadonning eng pastki qismi bo'lib, u qinga qarab chiqadi. Uning ichida servikal kanal joylashgan bo`ladi. Uning yuqori qismi bachadonga kiradi, pastki qismi standart ginekologik tekshiruv paytida ko'rinadi (bu tug'magan ayollarda yumaloq teshik, tug'ganlarda ko'ndalang bo'ladi). Aynan bachadon bo'ynini vaginal qismini o'rab turgan tekis ko'p qatlamli epiteliyning shikastlanishi eroziyaga olib keladi.

Bachadon bo'yni jinsiy aloqa, turli diagnostik/davolovchi vaqtida shikastlanadi.Unga infektsiyalar ham salbiy ta'sir qiladi.

**Sabablari**:Siydik tizimining yallig`lanishi kassaliklari bachadon bo`yni eroziyasining paydo bo`lishiga olib keliushi mumkin deb hisoblanadi.

-bachadon bo`yning mehanik shikastlanishi [homladorlikni su'niy ravishda to`xtatish,tabbiy tug`ish ,jarrohlik muolajalari ] ;

-ummumiy /mahalliy immunitetni pasayib ketishi;

-ayollardagi gormonal o`zgarishlar [homlador ayollarda ,tug`ruqdan keying davrida ,birinchi jinsiy aloqadan keyin,] ;

-spermitsidlar .

**Kasallik belgilari:**Ko`pgina hollarda ayollarimiz bachadon eroziyasiga **kasalangani bilishmaydi** ,odatdagi turmish tarzini olib borishadi va faqatgina ginekolog tomonidan muntazam tekshirilgan paytda u bachadon bo`yin yallig`lanish kassaligini davolash muhtoj ekanligini bilib oladilar.Ba`zi hollarda bu kassalik quydagilar orqali oshkor bo`ladi:

-vaginal yo`llarda shilliq yoki yiringlar ko`p miqdorda suyuqlik chiqishi :

-jinsiy aloqa paytida og`riq :

-qon aralash suyuqlik chiqib turish [bu haqiqiy erozyaga xosdir.

**Kasallikni oldini olish :**

-shaxsiy gigenyaga diqqat bilan kuzatib borishimiz kerek:

-xar doim jinsiy sherigi bitta bo`lish kerek:

-to`g`ri ovqatlanishga e`tabor berish kerak:

-yomon odatlardan voz keching:

-siydik tizimining yallig`lanishiva yuqumli kasaliklarni malakali va o`z vaqtida davolang ;

-yilliga 2marta ginekolog tomomidan tekshiruvdan o`ting:

-yiliga 1 marta kolposkopiya qiling ,testlardan o`ting.

**Xavfli omillari:**Ko`pincha ayollar quydagi belgilardan aziyat kechishadi:

-vaginal disbiyoz va jinsiy yo`l bilan yuqadigon kasalliklar;

-imminutetning pasayishi ;

-erta boshlangan jinsiy hayot ;

-abort ;

-gormonal kasaliklar.

**Diagnostikasi:**Erozyani ginekologik stulda oyna yordamida standart tekshiruv paytida aniqlash mumkin.Bachadon bo`yni yallig`langan joyni sifatli o`raganish uchun kolkoskopiya o`tkaziladi [tekshirishda maxsus mikroskop ishlatiladi ].Kolkoskopiyada shifokorlarga erozyani yomon sifatli o`simtalar bilan farqlash imkonini beradi.Buning uchun erozyalangan yodning zaif eritmasi bilan ishlob beriladi va bu tajriba natijasida psevdo – eroziya va haqiqiy eroziya xira pushti rangga,atipik o`choqlarga –oq , displaziya-sariq ranga kiradi.

**Bachadon bo`yin eroziyasining turlari :**

-chin eroziya .Bunda yuqoridagi ginekologik tekshiruvlarda bosilganida qonaydigon yorqin qizil dog` tushuniladi.Bumday eroziya shunisi bilan xafliki,zararlangan hudlarda yiring paydo bo`lishi mumkin .Chin eroziya 2 xafta davom etadi va keyin u biriktiruvchi to`qma bilan qoplanadi va psevdoeroziyaga aylanadi.

-bachadon bo`yning psevdoeroziyasi –buning diametiri 5 mm ga teng bo`lgan dumaloq qizil hududni nazarda tutadi, uning ustida ham yiring hosil bo`lishi mumkin ,kasalik uzoq vaqtdan beri davom etayotgan bo`lsa, ko`p hollarda bu belgilar kuzatiladi.Psevdoeroziya qonida ayol gormonlari yuqori bo`lgan qizlar uchun xosdir va bachadon bo`yni kanali chegarasidan tashqariga chiqib ketishi mumkin.

-tug`ma eroziya yosh yoki o`smir qizlarni ko`rikdan o`tkazyotgandan ,ginekolog bachadon bo`ynida silindirlik epitelya

silijishini aniqlaydi ,kolkoskopiyada esa uni yorqin qizil ranga bo`yalganini ko`rishimiz mumkin, uning davolashga hojat yo`q chunki amalda u hech qachon onkologik kasalliklarga aylanmaydi.

**Davolash** : Bachadon eroziyasini davolash majburiy hisoblanadi,bu kasallikni e`tiborsiz qoldirish yomon yoki yaxsgi sifatli o`smalar ,kasalikning og`ir shakllari rivojlanishiga olib keladi.O`z vaqtida o`tkazilgan keng  qamrovli davolash nafaqat ayollarning sog`ligiga hech qanday zarar yetkazmaydi , balki umuman olganda ijobiy ta`sir ko`rsatadi.Albatta ,davolanish individual bo`lishi kerak.

Ayni paytda bachadon bo‘yni eroziyasini davolashning bir qancha usullari mavjud. Qaysi birini qo‘llash esa kasallik darajasiga qarab belgilanadi. Qinda yallig‘lanish jarayoni bo‘lganda birinchi galda infeksiya qo‘zg‘atuvchisini aniqlash va antibakterial terapiya kursini olib borish zarur.

**Diatermokoagulyatsiya (yuqori harorat yordamida kuydirish)** – eski an’anaviy usul. Ayni paytda asosan tuqqan ayollardagi yaxshi sifatli eroziyani davolashda qo‘llaniladi. Diatermokoagulyatsiya natijasida bachadon bo‘yni elastikligi yo‘qolishi va bu keyingi tug‘uruqlarda noqulaylik tug‘dirishi mumkin. Kuydirilgandan so‘ng yara 8-10 haftada bitadi.

**Kriodestruksiya (“muzlatib qo‘yish”)** – patologik o‘zgargan sohaga suyuq gaz bilan ta’sir ko‘rsatish orqali davolovchi usul. Bunda zararlangan yuza muzlatib qo‘yiladi. Bu usul og‘riqsiz va chandiq qoldirmaydi. Kriodestruksiyaning salbiy tomoni shundaki, to‘qimalarning yetarlicha muzlamaslik xavfi bor. Natijada o‘zgargan hujayralar tamoman yo‘qolmaydi. Yaraning bitish davomiyligi 8-10 hafta.

**Xirurgik lazer yordamida davolash** – eng samarali va bachadon bo‘yni kasalliklarini (eroziyadan tortib, bachadon bo‘yni saratonining boshlang‘ich formalarigacha) davolashning zamonaviy usuli. Buning afzalligi sog‘lom to‘qimalarning saqlanib qolishi, qo‘pol chandiqlar paydo bo‘lmay, qisqa muddatda bitishida. Yara 4-6 haftada bitadi.
Va quydagi dori-darmonlar keng tarqalgan hisoblanadi :

**Tricholoacetic kislotasi (TCA):** Bu kimyoviy modda eroziyani yo'q qilish uchun ishlatiladi. U odatda shifokor tomonidan bachadon bo'yni eroziyasiga to'g'ridan-to'g'ri qo'llaniladi.

**Podofilox:** Bu dori-darmon eroziyani yo'q qilish uchun ishlatiladigan o'simlik ekstraktidir. U krema shaklida qo'llaniladi.

**Imiquimod**: Bu dori-darmon immunitet tizimini rag'batlantirish orqali eroziyani davolashga yordam beradi. U krema shaklida qo'llaniladi.

**Sinecatechins:** Bu dori-darmon yashil choy ekstraktidan olingan va eroziyani davolash uchun ishlatiladi. U krema shaklida qo'llaniladi.

Qo'shimcha ma'lumotlar:

Bachadon bo'yni eroziyasi ko'pincha o'z-o'zidan yo'qoladi va davolanish talab etilmaydi.

Agar davolanish talab etilsa, shifokor sizga eng mos dori-darmonlarni tanlashga yordam beradi.

Dori-darmonlarni qo'llashdan oldin shifokor bilan maslahatlashish juda muhimdir.

***Xulosa.***

Bachadon bo'yni eroziyasi - bu bachadon bo'yni shilliq qavatining shikastlanishi bo'lib, u odatda jinsiy yo'l bilan yuqadigan infektsiyalar (JYVI) yoki boshqa omillar, masalan, tug'ish yoki jarrohlik amaliyotlari tufayli yuzaga keladi. Ushbu holat ko'pincha hech qanday alomatlarsiz bo'ladi, ammo ba'zi hollarda qon ketishi, og'riq yoki vaginal oqindi bo'lishi mumkin. Bachadon bo'yni eroziyasi odatda jiddiy holat emas va ko'pincha o'z-o'zidan yo'qoladi. Ammo, ba'zi hollarda davolanish talab etiladi. Davolash usullari eroziyaning og'irligiga qarab farq qiladi va quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:Kutishi va kuzatish: Ko'pgina hollarda eroziya o'z-o'zidan yo'qoladi va davolanish talab etilmaydi. Dori-darmonlar: Ba'zi hollarda eroziyani davolash uchun kremlar yoki vaginal tabletkalar qo'llaniladi.

Jarrohlik: Agar eroziya jiddiy bo'lsa yoki dori-darmonlar samarasiz bo'lsa, jarrohlik amaliyoti talab etiladi.

Bachadon bo'yni eroziyasi xavfli o'simta xavfini oshirishi *mumkin, ammo bu holat juda kam uchraydi. Shuning uchun muntazam ravishda ginekologga tashrif buyurish va bachadon bo'yni saratonini tekshirish juda muhimdir.*

*Agar sizda bachadon bo'yni eroziyasi bo'lsa yoki alomatlarni sezsangiz, ginekologga murojaat qiling. U sizning holatingizni baholash va davolash rejasi tuzishga yordam beradi.*

**Foydalanilgan adabiyotlar :**


1. Allayorov Ya.N “Akusherlik” “O`zbekiston milliy enisklopediyasi” Davlat ilmiy nashiryoti ,T.,2011.
2. Qodirov A.A ., Kattaxo`jayeva M.X. “Akusherlik amaliyoti” , Abu Ali ibn Sino nomidagi nashriyot ,T.,2001.
3. Ziyayeva M.F., Mavlonova G.X. “ Ginekologiya” , “O`qituvchi “ ,T., 2012.
4. Kretova N.Y., Simirnova L.M. “ Akusherlik va ginekologiya ”.T., ibn sino nomidagi nashriyot 1991 .


## INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA GENDER IBORALARINING SHAKLLANISH JARAYONI


*S.P.Saidakbarova*
*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti*
*Maftuna Karshibayeva*
*1-bosqich magistrant,*
*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*
*Usarova-23@mail.ru*



**Annotatsiya:** Berilgan maqolada Maqolada ingliz iboralarining tarixiy asoslari haqida gap boradi. Maqolaning maqsadi asosan ingliz tilidagi ba'zi umumiy iboralarning ma'nolari, kelib chiqishi va ishlashini aniqlashdir. U ushbu kontseptsiya sohalarini o'rganadi,iboraning

ma'nosini va "etimologiya" atamasining ma'nosini va ingliz iboralarining ildizini tpavsiflaydi.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается историческая основа английских идиом. Целью статьи является прежде всего выявление значений, происхождения и функционирования некоторых распространенных идиом в английском языке. В ней рассматриваются области данного понятия, значение фразы и значение термина «этимология», а также описываются корни английских выражений.

**Annotation:** The article discusses the historical background of English phrases. The main purpose of the article is to identify the meanings, origins, and usage of some common phrases in the English language. It explores these conceptual areas, explains the meaning of the phrases and the term "etymology," and describes the roots of English phrases.

**Kalit so‘zlar:** ibora, gender, lingvistika, etiomologiya, psixika, lingvistika.

Har bir tilda bevosita tushunib bo'lmaydigan so‘zlar yoki iboralar mavjud. Agar ma'nosini bilgan taqdirda ham barcha so‘zlar va barcha grammatik iboralarni tushunish va ma’nosini aniq ta’riflash mushkuldir. Ibora - bu so'z yoki ibora ma’lum bir tilda so'zlashuvchilar orasida keng qo‘llaniladi va majoziy ma’noda ma’nosi uning tom ma’nosidan farq qiladi. Quyidagi birliklar deyarli har bir sohada foydalanib kelinadi va o’sha tillardagi madaniyat va urf–odatlar asosida paydo bo’lganligi sababli, ularni boshqa masalan o’zbek tiliga to’g’ridan-to’g’ri, so’zma-so’z ma’nolarini keltirib chiqarish mushkul vazifadir.

Vaqt o‘tishi bilan insonning jinsi biologik xususiyatdan xarakterli ijtimoiy-psixologik xususiyatga aylandi. Shunday qilib, “gender” tushunchasi mavjud bo'lib, jamiyat odamlarga ularning biologik qavatiga qarab amalga oshirishni buyuradigan ijtimoiy va madaniy me‘yorlar to‘plamini anglatadi. “Gender” tushunchasi uzoq vaqt davomida grammatikadan tashqarida edi. Bu hodisa keng tarqalgan ijtimoiy-madaniy, psixolingvistik hodisa sifatida qaraladi. Til bilan bog‘liq zamin omili birinchi marta antik davrda Grammatik

jins toifasini baholashda paydo boʻlgan. Eng qadimiy va uzoq vaqt davomida turkum turkumining paydo boʻlishi va faoliyatining sabablari toʻgʻrisidagi yagona gipoteza tilshunoslikda jinsning tabiiy biologik kategoriyasi oʻzaro bogʻlanishiga asoslanib, ramziy va semantik xususiyatga ega boʻlgan. Ushbu gipoteza tarafdorlari tabiiy voqelik - boshqa qatlam insonlarining (Herder, Gumboldt, Grimm va boshqalar) mavjudligi ta'siri ostida paydo boʻlgan deb hisoblashadi, bir vaqtning o'zida tadqiqotchilar tushuntirish uchun til boʻlmagan tajribadan foydalanganlar. Turli xildagi turkum turkumlarini talqin qilishda baholashning paydo boʻlishiga olib keldi. Ismlarda erkak jinsi kuch, faollik, energiya semantikasi, unga taalluqliligi sababli paydo boʻlgan bo'lsa, ayol jinsining nomlari, aksincha, passivlik, boʻysunish bilan ajralib turardi. Shunday qilib, ijtimoiy voqelik shartlari tilning rivojlanish qonuniyatlariga ekstrapolyatsiya qilindi, bu E. Bornemanning asosiy gender tadqiqotlari tomonidan tasdiqlangan, bunda tahlil fanlararo yondashuv nuqtai nazaridan olib boriladi. Ramziy va semantik gipotezaga zarba turkumi mavjud boʻlmagan tillarning ochilishi bilan bo'ldi. Tildagi gender omilini oʻrganishda saksoninchi yillarning oxirida e'lon qilingan rus maktabining koʻplab tilshunoslari (Haleeva I.I., Kirilina A.V., Malishevskoy D.Ch. va boshqalar) jasorat va ayollikni oʻrganishni asosiy deb hisoblaydigan lingvokulturologik yondashuv deb ataladi. Madaniy tushunchalar "Gender" toifasining ijtimoiy ahamiyati uning zamin muammolari bilan bogʻliq barcha til hodisalariga qo'llanilishini asoslaydi. "Qavat va uning koʻrinishlari nafaqat til "roʻyxatga olingan", balki aksiologiyaga ega boʻlib, dunyoning sodda tasviri nuqtai nazaridan baholanadi.1970-yillardagi tadqiqotlar ularda mavjud bo'lgan lingvistik fan muammosini "eʻtirof etish" ni koʻrsatadigan xulosalarning nopokligi bilan ajralib turadi. Til (nutq) xulq-atvorida "ayollar hamkorligi"ning "erkaklar raqobati"ga qarama-qarshi qoʻyish nazariyasi gender tilshunosligining aspektlaridan biriga aylandi. Deyl Spender ("Odam tomonidan yaratilgan til", Spender, 1986) ta'kidlashicha, til dastlab jamiyatda erkaklar ustunligini oʻrnatishga moyildir. Ushbu bayonot bir muammo boʻyicha qoʻpol munozaraga sabab boʻldi. Haqiqatan ham shunga oʻxshash hodisalar tilning voqelikni yaratishi bilan bogʻliqmi yoki odamlarning tartibdagi soʻzlari fikrlash jarayonlariga aloqador emasmi? Atrofdagi dunyodan bilish

jarayonida ob‘ektlar, xususiyatlar, jarayonlar nafaqat real, balki ichki dunyolar ham ajratiladi va chaqiriladi. Madaniyatning tasvirlari, ramzlari, standartlari va stereotiplarini oxirigacha etkazish mumkin, shuningdek, qadriyatlar jamiyati sifatida tan olingan axloqiy me’yorlar. Biologik-jinsiy voqelikdan kelib chiqadigan gender stereotiplari ushbu madaniyat doirasida ushbu qavat vakillariga xos bo‘lgan biologik belgilar, ijtimoiy rollar, mentalitet va xatti-harakatlarning xususiyatlarini aks ettiradi.

Erkaklik va ayollik atamalari gender stereotiplari bilan bog‘liq holda, o‘zlarini kontseptual metaforalarni (P. Lakoff) ifodalaydi, ular ichki ziddiyatli va ayni paytda erkaklar va ayollar substratlarining dinamik nisbatlarini o'tkazadi. Erkaklik va ayollik eng turli sohalarda, masalan, xatti-harakatlar turlarida, turli xil ijtimoiy faoliyat turlarida, shuningdek, ushbu hodisalarni tavsiflovchi tilda kuzatilishi mumkin. Keling, lug‘at tahlili natijalariga qaytaylik. XX asr o‘rtalarida ingliz lug‘atlarining tahlili feministik tilshunoslikning leksikografik manbalarda
tilning seksistik qo‘llanilishini aks ettiruvchi va ko‘paytiradigan ta'minlanganligini ko‘rsatadi. Tadqiqot “Advanced Learner's Dictionary of Current English” A.S.Hornby lug‘atining illyustrativ kontekstlari (IC) materiallari bo'yicha olib borildi, nufuzli 1940-50-yillarda, prod. 1942, 1948, 1958 (ALDCE), shuningdek, ushbu manbada ko‘rsatilgandek kuzatishga qaratilgan:

–tilda ayollarning tushunarsizligi;

–ayollar maqomining erkaklarnikiga nisbatan ikkinchi darajaliligi;

-har ikkala jinsning stereotipik vakili, olib keladi

-boshqacha qilib aytganda, lug‘at yozuvlarida gender assimetriyasi qanday ko‘rsatilgan.

Qo’pol va haqoratli so‘zlar balki ayollar yumshoq va itoatkor bo‘lganlari uchun ular odatda bunday ‚jargon so‘zlardan qochishadi. Ularning fikricha, bunday so‘zlar nafaqat boshqalarni bezovta qiladi balkim “no’maqul” degan taassurot qoldiradi, balki u va boshqalar o‘rtasidagi munosabatlarni buzadi. Ayollar har doim o'zlarining inoyatiga va tildan foydalanishlariga ko‘proq e‘tibor berishadi. Ayollarning “la’nati, la’nati, do‘zax” kabi so‘zlarni aytishlarini, o‘z his-

tuyg‘ularini ifodalash uchun “oh, azizim, xudoyim” degan so‘zlarni kamdan-kam eshitamiz. Diminutives ayollar “kichik” ma’nosiga ega bo‘lgan so‘zlarni ishlatishni yaxshi ko‘radilar, masalan, *bookmaker hanky*, *panties*. Ular, shuningdek, azizim,sevgilim kabi mehr-muhabbatni ko‘rsatadigan so‘zlarni ishlatishni yaxshi ko‘radilar. Bundan tashqari, ayollar xushmuomalalikni ko‘rsatadigan so‘zlarni ishlatishni yaxshi ko‘radilar, masalan, iltimos, rahmat, va ular ko‘proq evfemizmni ishlatishadi, ammo “jargon” erkaklarning afzalligi hisoblanadi. Tadqiqotdan shuni ko‘rishimiz mumkinki, erkaklar va ayollar ta’kidlangan effektlarga erishishda o‘zlarining lug‘at tanlashlariga ega. Biz tez-tez bir ayolning “xo‘p, bilasizmi…, menimcha…, menimcha….., ehtimol, men noto‘g‘riman, lekin… va hokazo. Ayollar turli yo‘llar bilan quyidagicha ifodalaydi. Ayollar: *Men hayron bo‘ldim, siz menga yordam bera olasizmi?* Erkaklar: *iltimos, menga yordam bering.* Yuqoridagi misoldan ko‘ramizki, erkaklar to’g‘ridan-to‘g‘ri biror narsani so‘rashga moyil, ayollar esa xushmuomalaroq.So‘roq gaplar ayollar erkaklarnikiga qaraganda ko‘proq so‘roq gaplarni ishlatadilar. Ayollar so‘roq gaplarni yaxshi suhbatni davom ettirish strategiyasi sifatida ko'rishadi. Lakoff (1975) ta‘kidlaganidek, erkaklarnikiga qaraganda, ayollar o‘z fikrlarini ifodalash uchun so‘roq gaplardan ko‘proq foydalanadilar va ular teg savollaridan foydalanishni yaxshi ko‘radilar, chunki teg savollari ohangni kamroq taranglashtirishi mumkin .

Turli xil ijtimoiy, madaniy va siyosiy omillar bilan bir qatorda, til, shubhasiz, xurofotlarning eng katta tashuvchilaridan biridir. Biz ongli yoki ongsiz ravishda barcha e’tiqodlarimiz, qadriyatlarimiz va umidlarimizni so‘z boyligimiz, nutq uslubi va boshqalarni tanlash orqali tasvirlashga moyilmiz. Bundan tashqari, ma‘ruzachilarning gender tengligi kabi turli xil ijtimoiy muammolarga munosabati bizning tilimiz orqali ko‘rinishi mumkin.

Anketa natijalari shuni ko‘rsatadiki, jinslar va ularning til qo‘llanilishi o‘rtasida turli xil kutish va lug‘atdan tortib, kuch, birdamlik va bilvosita foydalanish, to‘xtash va undov odatlarigacha ko'plab dixotomiyalar mavjud. Biroq, jinslar o‘rtasidagi aloqani yaxshilash uchun bu dixotomiyalarni aniqlash etarli emas, balki ularni qabul qilish va ularni tanib olish va ularga rioya

qilishni o‘rganish kerak. Farqlarni tushunishdan tashqari, muloqotdagi o‘xshashliklarni tan olish ham juda muhim, chunki ular jinslar o‘rtasidagi tafovutlarni bartaraf etishda katta yordam berishi mumkin. Tadqiqotga ko‘ra, bugungi kunda muvaffaqiyatli muloqotda gender emas, balki kommunikativ kompetentsiya hal qiluvchi ahamiyatga ega. Muhim mahorat shaxsiy his-tuyg‘ular va ma’lumotlar bilan bo‘lishish qobiliyati, ushlab turish qobiliyati, adekvat shaxslararo munosabatlar va hayotiy masalalarni muhokama qilish qobiliyati mavjud.

Erkaklar ham, ayollar ham ushbu ko‘nikmalarning bir qismiga ega ekanligi isbotlangan, ammo bir erkak yoki bir ayol bu xususiyatlarning barchasiga ega bo‘lishi kamdan-kam uchraydigan hodisa.

**Adabiyotlar ro’yhati:**

1.Ammer Chr. The American heritage dictionary of idioms. Houghton Mifflin Company, 1997

2.Cambridge English Dictionary 3.https://www.google.com/amp/s/dictionary.cambridge.org/amp/english/ 4.Common idioms and their surprising origins. www.tckpublishing.com

5.Daphne M. Gulland, David Hinds-Howell – “The Penguin dictionary of idioms”- 2001

6.Dixon R. “Essential idioms in English” (1994) 7.Flavell, L. “Dictionary of idioms and their origins”. CPI Group (UK) Ltd. (2011)

8.Idioms list https://leaftranslations.com/put-a-sock-in-it-and-10-other-great-englishidioms

9.Kunin, A.V. “Common-Idioms-and-Phrases-Meanings-and-Origins”. (1996) 10.“Oxford Royal Academy English Idioms with their Meanings and Origins” (2014)

11.SHERZODOVICH, A. S., & KIZI, R. Z. D. (2020). Interpretation and Written Translation: Related Learning. INTERPRETATION, 6(6).

12.Аслонова, Ш. И. (2020). ПРОБЛЕМЫ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ МОЛОДЁЖИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ. Интернаука, (21-1), 59-60.

13.Sherzodovich, A. S. (2020). The role of online teaching and innovative methods. Science and education, 1(3), 524- 528.

14.Аслонов, Ш. Ш. (2020). КОМПЬЮТЕРНАЯ ЛИНГВИСТИКА И ФИЛОЛОГИЯ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ. Гуманитарный трактат, (84), 17-19.

15.Aslonov, S., & Ruzimurodova, Z. (2020). THE USE OF ACRONYMS AND INITIALISMS IN BUSSINES ENGLISH. Студенческий вестник, (12-5), 34-35.

## ABDULLA AVLONIY ASARLARI VA MA'RIFATPARVAR QARASHLARI -- YOSHLAR TA'LIM-TARBIYASIDAGI MUHIM DASTURULAMAL

*Egamov Yusufboy Ergashbek o'g'li*

*Urganch davlat pedagogika institute*

*Filologiya va tarix fakulteti talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada jadidchilik harakatining namoyondasi Abdulla Avloniyning tarbiyaga oid fikr va qarashlari hamda ularning yoshlar tarbiyasida tutgan beqiyos o'rni ko'rsatib o'tiladi. Bu qarashlarning hozirgi kun uchun bo'lgan dolzarbligi yoritib beriladi.

**Kalit so'zlar.** Jadidchilik, ma'rifatparvar g'oyalar, ta'lim, tarbiya, ijtimoiy muhit, yoshlar tarbiyasi, barkamol avlod.

Jadidchilik harakatining yorqin namoyondalaridan biri bo'lgan Abdulla Avloniy butun faoliyatini ilm-ma'rifat yo'liga bag'ishlagan. Xalqni savodli qilish, madaniy jihatdan kamolotini ta'minlash, ayniqsa, yosh avlodning sifatli ta'lim hamda tarbiya olishi kabi

muhim masalalarni o‘z ijod va faoliyat yo‘lining asosi sifatida qabul qilgan. Bu borada Abdulla Avloniy bir qator e’tirofga loyiq va barchaga ibrat-u namuna bo‘ladigan ishlarni amalga oshirdi. Abdulla Avloniyning ma’rifatparvarlik g‘oya va qarashlarining ahamiyati hozirgi davrga kelib ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. 2017-yilning 3-avgust kuni O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz ijodkor ziyoli vakillari bilan uchrashuv o‘tkazdi. Ushbu uchrashuvda madaniyat va san’at sohasida yuzaga kelgan ko‘plab muammolar o‘rtaga tashlandi. Mazkur yig‘ilishda madaniyat, ommaviy axborot vositalari, adabiyot va san’at sohasini tubdan isloh qilish maqsadida amalga oshiriladigan keng miqyodagi ishlar xususida so‘z bordi, yosh iste’dodlar tarbiyasi, madaniyatimiz va adabiyotimizni rivojlantirish maqsadida yangi g‘oya, tashabbus va takliflar bildirildi: “Biz uchun hech qachon kun tartibidan tushmaydigan yana bir o‘ta muhim masala borki, unga alohida to‘xtalib o‘tish zarur deb bilaman, u ham bo‘lsa, unib-o‘sib kelayotgan yosh avlodimiz, farzandlarimiz tarbiyasi bilan bog‘liq. Buyuk bobomiz Abdulla Avloniy aytganidek, bu masala biz uchun, haqiqatdan ham ,yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir.[1][32]”

Abdulla Avloniy o‘z ibratli hayot va ijodiy yo‘lini asarlar yozishda boshlagan. O‘z asarlari orqali xalqni ma’naviyatli va ma’rifatli qilishga harakat qiladi. Abdulla Avloniy maktablar uchun “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Turkiy guliston va axloq” kabi zamonasi uchun muhim bo‘lgan darsliklarni yozgan. 1895-yillardan ijodiy faoliyatini boshlagan Avloniy bir qator taxalluslari bilan she’r, hikoya, felyeton va kichik hajmli dramatik asarlar yaratdi. Shoir o‘z she’rlarida zamonasidagi qoloqlikni, xalqning bilimsiz ekanligini, ilm olishga intilmasligini tanqid qiladi va kishilarni bilimli, ma’naviyatli, ma’rifatli bo‘lishga chaqiradi.

Abdulla Avloniy maktablarda maktabdorlik faoliyati bilan ham shug‘ullangan. Maktablarda dars berish orqali yosh avlodning ta’lim-tarbiyasidagi o‘ziga xos tomonlarni kuzatadi. Qanday ishlar qilish yaxshi natijalar berishi mumkinligini tahlil qiladi.

[32] Shavkat Mirziyoyev.Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish- xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. “Xalq so‘zi”, 2017- yil 4-avgust .

Abdulla Avloniy ota-onalar bilan farzand o'rtasidagi munosabatlarga yangicha izoh beradi. U bolaning nafsoniyatiga tegadigan, bolaning hissiyotiga shikast yetkazadigan, uni ruhan va ma'nan ezadigan jazoni qoralaydi. Bolani sevish va unga ustalik bilan ta'sir ko'rsatish zarur, uni ishontirish vositasi bilan o'z burchini anglatish zarur, deb hisoblaydi. Farzand tarbiyasida bola yashab turgan shart-sharoit, muhit, atrofidagi kishilarning roli katta ekanligi ko'rsatiladi[2][33].

Adib ta'lim bilan tarbiya bir butun jarayon ekanligini ta'kidlaydi: "Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo'lsa ham ikkisi bir-biridan oyrilmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidur[3][34]. Abdulla Avloniy axloqiy tarbiyaning insoniyat hayotidagi buyuk roliga keng to'xtaladi va bolalarni yoshlik chog'idan boshlab tarbiyalash zarur deb uqtiradi. Adibning ta'kidlashicha, tarbiya o'z vaqtida berilmasa, bolada dunyoqarash shakllangach, unga tarbiya ta'sir etmaydi.

Abdulla Avloniyning fikricha, bolada axloqiy xislatlarning tarkib topishida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit muhim ahamiyat kasb etadi. Haqiqiy insoniy axloqni o'zida barqaror qilgan kishilar yoshlarning mehr-shafqatli, oqibatli, sof ko'ngil va odobli bo'lib tarbiyalanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadilar. Abdulla Avloniy davlat hamda jamiyatning ertangi kuni yosh avlodga bog'liq ekanligiga to'xtalar ekan: "Ilm-u toliblardan biri aytganidek, har bir millatning saodati, davlatlarning tinch va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog'lidur", – deya ta'kidlab o'tadi.

Avloniyning ta'kidlashicha, tilga, madaniyatga muhabbat har bir kishining xalqiga bo'lgan muhabbatidir. Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurg'on oyinayi hayoti til va adabiyotidur. Avloniy so'zning inson qadr-qimmatini belgilashdek mavqeiga umuminsoniy nuqtai nazardan baho berdi. Til va so'z haqidagi fikrlarini quyidagicha ifodalaydi: "So'z insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini o'lchab ko'rsatadurg'on tarozisidur. Aql sohiblari kishining fikr va niyatini,

---

[33] Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq.-Toshkent: "O'qituvchi", 1992.-B.4.
[34] Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq.-Toshkent: "O'qituvchi", 1992.-B.3

ilm va quvvatini, qadr va qimmatini so‘zlagan so‘zidan bilurlar[4][35]” mazmunidagi hozirgi kunda ham ahamiyatli bo‘lgan fikrlarni aytib o‘tgan.

Avloniy xalqni uyg‘otish,ma’rifatli hamda ilmli qilish, yosh avlodning tarbiyasini yaxshi qilish maqsadida matbuot sohasida ham faol ish olib borgan. Adib Toshkentda “Shuhrat”, “Osiyo” , “Taraqqiy” kabi gazetalarni tashkil etadi hamda bu gazetalarda bir qator maqolalarni nashr qildiradi. Xalqni ma’rifatli qilish uchun teatr zarurligini anglagan holda, bir qator teatr truppalarini tashkil qiladi. “Advokatlik osonmi?”, “Ikki muhabbat”, “To‘y”, “Syezd”, “Layli va Majnun”, “O‘liklar” kabi dramatik asarlarida jaholat, bid’at, bilimsizlikning fojiali oqibatlarini, tarbiya va ma’rifatdan uzoq bo‘lgan ayrim qo‘shtirnoq ichidagi an’ana, urf-odatlarni qoralaydi.

Abdulla Avloniy yoshlarni “millat gulshanining gullari” deb atagan. U ta’limning asosiy vazifasi sifatida yoshlarda axloqiy poklik, vatanparvarlik, o‘zlikni anglash, ilm-fanga mehr uyg‘otishni belgilagan. Uning fikricha: “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir.” Mazkur ibora yoshlar ta’lim-tarbiyasi nechog‘li muhim masala ekanini yaqqol ko‘rsatib beradi. Avloniy uchun tarbiya faqatgina nazariy tushuncha emas, balki amaliy hayotiy zarurat edi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati yuksak darajada olib borilmoqda. Davlatimiz tomonidan yoshlarga oid islohotlar, mohiyatiga nazar tashlansa, Avloniy ilgari surgan g‘oyalar bilan o‘zaro uzviylik ko‘rinadi. Abdulla Avloniy o‘z davrining buyuk ma’rifatparvari bo‘lish bilan birga, bugungi kun uchun ham teran saboqlar manbaidir. Uning asarlari yoshlar ta’lim-tarbiyasida yuksak o‘rin tutishi, ularni milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, ezgulik va ilmga muhabbat ruhida tarbiyalashdagi dasturulamal sifatida keng foydalanilishi zarur.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Avloniy merosini chuqur o‘rganish, uni yosh avlodga yetkazish har bir pedagog, ota-ona va jamiyat oldidagi muhim vazifalardan biridir.

[35]Abdulla Avloniy. Birinchi Muallim.T., 1915.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Shavkat Mirziyoyev.Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish-xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. “Xalq so‘zi”, 2017- yil 4-avgust .
2. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq.-Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti..
3. Dolimov U. “Abdulla Avloniy-milliy uyg‘onish davri o‘zbek pedagogikasining asoschisi”.
4. Abdulla Avloniy. Birinchi Muallim.Toshkent.1915.
5. Abdulla Avloniy(Jadid adabiyoti namoyondalari) - yurt qayg‘usi haqida bebaho asarlar. – Toshkent: “Zabarjad media”, 2023.

## ИЗМЕНЕНИЕ КЛИМАТА И МИРОВАЯ ЭКОНОМИКА

*Батырова Дилноза*

*Шахрисабзский государственный педагогический институт*

*Курс русского языка в группах иностранных языков*

*студент 2 курса*

*dilnozabotirova274@gmail.com +998942273106*

*Научный руководитель: Тиллаева Муяссар Ярбазаровна*

**Аннотация:** Изменение климата представляет серьезную угрозу устойчивому развитию современной мировой экономики. Увеличение выбросов парниковых газов в атмосферу усугубляет экологические проблемы и приводит к серьезным экономическим потерям в сельском хозяйстве, промышленности и транспорте. В статье анализируется влияние изменения климата на мировую экономику и предлагаются решения, основанные на зеленой экономике, возобновляемых источниках энергии и стратегиях устойчивого развития. Будет подчеркнута важность международного сотрудничества и инновационных технологий для обеспечения экологической безопасности и поддержания экономического роста.

**Ключевые слова**: изменение климата, мировая экономика, парниковые газы, зеленая экономика, возобновляемые источники энергии, устойчивое развитие, экологические инновации.

Как вам известно, связь человечества с климатом известна уже много веков. Потому что совершенно очевидно, что этот единственный эксперимент Матери-природы повлияет на всю цивилизацию и облик нашей планеты.

В нынешнюю информационную эпоху влияние климата отчетливо проявляется во всех аспектах экономической деятельности человека: от сельского хозяйства до энергетики, транспорта, использования современных нанотехнологий и других областей, а также в здоровье и деятельности человека.

Более того, возникновение таких угроз, как наводнения, ураганы, лесные пожары, усиление процессов опустынивания и землетрясения на континентах и в крупных странах, действительно заставляет население планеты серьезно задуматься.

В этом отношении, например, наводнения в Индии, палящая жара, оползни в странах, расположенных вблизи океанов, или землетрясения в Турции и европейских странах, гибель людей в Испании или Франции в этом году из-за аномальных изменений климата и другие изменения — все это можно назвать «дарами и благословениями» изменения климата человечеству.

Не секрет, что на Всемирном экономическом форуме, состоявшемся около 10 лет назад, изменение климата, перебои в обеспечении человечества достаточным количеством чистой питьевой воды, а также проблемы, связанные с энергоресурсами и, особенно, возникновение дефицита продовольствия в сельском хозяйстве, были названы одними из важнейших угроз с глобальной точки зрения.

Тот факт, что наша планета настолько дестабилизирована, не является совпадением, а скорее происходит в рамках этих законов. К глобальным проблемам относятся снижение плодородия почв, ухудшение их свойств, усиление процессов засоления и эрозии, дестабилизация орошаемых и обрабатываемых земель и другие.

Изменение климата оказывает существенное влияние на мировую экономику. Исследования, проведенные различными организациями в последние годы, выявили явные признаки такого воздействия.

Ожидается, что глобальные климатические катастрофы нанесут экономический ущерб в размере 380 млрд долларов США в 2023 году (Munich RE, 2024). В США повышение температуры на 1°C может привести к потере до 10% доходов от сельского хозяйства (USDA, 2023). Ожидается, что повышение уровня моря вынудит около 300 миллионов человек, проживающих в прибрежных районах, к миграции к 2050 году (МГЭИК, 2023).

Страны, которые выбрасывают больше всего углерода в мире: Китай (30%), США (14%), Индия (7%) (Global Carbon Project, 2023). Политика, направленная на достижение углеродной нейтральности к 2030 году, может способствовать росту мирового ВВП на 2,5% (МВФ, 2023).

Ожидается, что инвестиции в зеленую энергетику достигнут 1,7 трлн долларов США в 2023 году (МЭА, 2024). Доля солнечной и ветровой энергии в мировом производстве электроэнергии выросла с 12% в 2022 году до 15% в 2023 году. В то же время растет спрос на новые технологии для перехода к углеродной нейтральности.Эти статистические данные наглядно демонстрируют влияние изменения климата на экономику и демонстрируют важность экологической политики для обеспечения будущей экономической устойчивости.

Результаты исследования подтверждают существенное влияние изменения климата на мировую экономику. Анализ данных показал, что экономические потери из-за стихийных бедствий и изменения климата растут с каждым годом.

По данным отчета Munich RE (2024), ущерб, нанесенный мировой экономике катастрофами, связанными с климатом, в 2023 году составил 380 миллиардов долларов США. Основной ущерб был нанесен засухами, наводнениями и штормами. Повышение температуры на 1°C в США может привести к потере до 10% доходов от сельского хозяйства (USDA, 2023).

Влияние выбросов углерода на экономику также существенно: Китай, США и Индия остаются крупнейшими в мире источниками выбросов $CO_2$ (Global Carbon Project, 2023). Однако политика по достижению углеродной нейтральности может оказать положительное влияние на мировой ВВП в размере до 2,5% (МВФ, 2023).

Исследование также показало, что инвестиции в зеленые технологии и возобновляемые источники энергии растут. В 2023 году объем инвестиций в зеленую энергетику достигнет 1,7 трлн долларов США (МЭА, 2024). Доля солнечной и ветровой энергии в мировом производстве электроэнергии увеличилась с 12% в 2022 году до 15% в 2023 году.

Влияние климатической политики на развивающиеся страны является сложным. Хотя введение налога на выбросы углерода приведет к увеличению затрат в некоторых отраслях, технологическая модернизация и инвестиции в охрану окружающей среды могут повысить экономическую устойчивость.

В целом результаты исследования показывают, что смягчение последствий изменения климата является не только экологической проблемой, но и важным фактором экономического развития. Страны и компании могут получить долгосрочные экономические выгоды, адаптировавшись к зеленой экономике.

Результаты данного исследования подтверждают, что изменение климата оказывает серьезное влияние на мировую экономику. Анализ показывает, что стихийные бедствия, рост выбросов углерода и экологическая нестабильность усугубляют экономические потери и оказывают негативное влияние на промышленность и сельское хозяйство.

Однако исследование также показывает, что меры по борьбе с изменением климата могут способствовать долгосрочной экономической стабильности. Инвестиции в зеленые технологии и возобновляемые источники энергии не только полезны для окружающей среды, но и важны для создания новых рабочих мест и стимулирования экономического роста.

Установлено, что международные инициативы по достижению углеродной нейтральности могут оказать положительное влияние на экономический рост. В то же время развивающимся странам необходима финансовая и технологическая помощь для реализации экологической политики.

В заключение следует отметить, что изменение климата представляет собой серьезную проблему для мировой экономики, и принятие эффективных мер по его борьбе имеет стратегическое значение для экономической стабильности и долгосрочного развития. Правительства и частный сектор должны работать сообща, сосредоточившись на разработке экологически чистых технологий.

На основании результатов данного исследования я делаю следующие предложения:

Во-первых, необходимо разработать эффективную политику по сокращению выбросов углерода. Экономическую стабильность можно обеспечить путем введения налога на выбросы углерода и поддержки экологически чистых технологий. Государствам и частному сектору следует укреплять сотрудничество в этом направлении.

Во-вторых, необходимы дополнительные инвестиции в возобновляемые источники энергии. Развитие солнечной, ветровой и гидроэнергетики не только повышает экологическую устойчивость, но и способствует долгосрочному экономическому росту.

В-третьих, необходимо разработать стратегии адаптации для снижения негативного воздействия изменения климата на экономику. Необходимо принять меры защиты от засух, наводнений и других стихийных бедствий, а также адаптировать инфраструктуру к климатическим условиям.

В-четвертых, необходимо оказывать финансовую и технологическую помощь развивающимся странам. Для перехода к экологической устойчивости необходимы дополнительные ресурсы. Международное сотрудничество должно включать обмен грантами, инвестициями и экологическими инновациями.

В-пятых, важно развивать экологическую культуру у населения и формировать принципы устойчивого потребления. Борьба с изменением климата зависит не только от государственной политики, но и от ответственных действий каждого человека. Поэтому необходимо сосредоточиться на программах экологического просвещения и образования.

В целом, учитывая, что изменение климата представляет серьезную угрозу экономической стабильности, необходим комплексный подход к его предотвращению и адаптации. Поэтому развитие «зеленых» технологий, совершенствование экологической политики и укрепление международного сотрудничества должны быть в числе приоритетов.

## ИСПОЛЬЗОВАННЫЕ ССЫЛКИ:

1. Абдуллаев Ш.Р. «Экологические проблемы и пути их решения» — Ташкент: Национальная энциклопедия Узбекистана, 2018.

2. Кадыров М.Р. «Охрана природы и экология» – Ташкент: Государственное издательство Узбекистана, 2019.

3. Каримов Ш.Р. «Изменение климата: проблемы и перспективы» – Ташкент: Наука и техника, 2020.

4. Саидов А.А. «Природа и человек: пути к устойчивому развитию» – Ташкент: Шарк, 2017.

5. Нурматов Д. «Экология и охрана окружающей среды» – Ташкент: Новое поколение нового века, 2021.

6. МГЭИК (Межправительственная группа экспертов по изменению климата). Изменение климата: Физическая научная основа. Женева: МГЭИК, 2023.

7. НАСА. Глобальное изменение климата: жизненные показатели планеты. – Вашингтон: НАСА, 2022.

8. Эл Гор. Неудобная правда. – Нью-Йорк: Родейл, 2006.

9. Дэвид Уоллес-Уэллс. Необитаемая Земля: жизнь после потепления. – Нью-Йорк: Книги Тима Даггана, 2019.

# LADA 2101("KOPEYKA") AVTOMOBILI ICHKI YONUV DVIGATELINING KRIVOSHIP-POLZUNLI MEXANIZMINI ANALITK USULDA TAXLIL QILISH

*Abdisaidov Nodirbek Akmalovich*
*Toshkent davlat transport universiteti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maqsad 2013-yil , 11-martda vmasshtabe.ru sayti foydalanuvchisi roman1289 loyihalangan ichki yonuv dvigatelining YaMZ-238 analogining shatun va val o’lchamlarini o’zgartirish orqali dvigatening quvatini oshirishga qaratilgan .

**Kalit so’zlar:** YaMZ-238 analogi , dvigatel samaradorligi, quvvat oshirish, shatun, val.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается цель повышения мощности двигателя внутреннего сгорания, аналогичного ЯМЗ-238, спроектированного пользователем roman1289 на сайте vmasshtabe.ru 11 марта 2013 года, путем изменения размеров шатуна и вала.

**Ключевые слова:** аналог ЯМЗ-238, эффективность двигателя, увеличение мощности, шатун, вал.

**Annotation:** This article focuses on increasing the power of an internal combustion engine analogous to the YaMZ-238, designed by the user roman1289 on the website vmasshtabe.ru on March 11, 2013, by modifying the connecting rod and crankshaft dimensions.

**Keywords:** YaMZ-238 analog, engine efficiency, power increase, connecting rod, crankshaft.

**Kirish:** Bu maqoladan maqsad 2013-yil , 11-martda vmasshtabe.ru ( https://vmasshtabe.ru/mashinostroenie-i-mehanika/dvigatel/ic-engine/chertezh-dvigatelya-v8-commonrail.html ) sayti foydalanuvchisi roman1289 ( https://vmasshtabe.ru/author/roman1289 ) tomonidan loyihalangan ichki yonuv dvigatelining YaMZ-238 analogining shatun va val o’lchamlarini o’zgartirish orqali dvigatening quvatini oshirishga qaratilgan .

**CommonRail yonilg’i tizimiga ega V shaklidagi sakkiz silindrli dizel dvigatelining chizmasi. YaMZ-238 analogi.**



| | |
|---|---|
| Muallif | roman1289 |
| Sana | 11.03.2013 |
| Til | Rus tili |
| Tarkibi | Umumiy o'lchamdagi dvigatel chizmasi |
| Dasturiy ta'minot | Kompas v13 sp1 |

Dvigatel xarakteristikalari Piston diametri

D=125 mm Piston stroki

S=134 mm Krank mili tezligi

n=2400 rpm Samarali quvvat

Ne=400 kVt Samarali yoqilg'i sarfi

ge=205 g/kVt*soat Siqish nisbati

E=17,2 Boost bosimi

P0=0,29 MPa



$l_1$

Biz ilmiy taqiqot olib boradigan obyetimiz bu dvigatelning shatun va val qismi bo'lib uning chizmada qanday ko'rinishi ko'rsatib o'tilgan 1-rasmda

Texnik o'lchamlari :

$l_1$ = 0,0748 m $\quad l_2$

$l_2$ = 0,2657 m

$\omega_1$ = 50 rad/s,

$\lambda = \frac{l_1}{l_2}$

1-rasm

| Taklif etilayorgan yangi o'lcham |
|---|
| $l_{1.1}$ = 0,09 m |
| $l_{2.1}$ = 0,3 m |

Ichki yonuv dvigatelining samaradorligi, detallarining mustahkamligini va tejomkorligini yaxshilash maqsadidi, ushbu ichki yonuv dvigatelining chiqish zvenosi polzunning siljish, tezlik va tezlanishlarini analitik usulda taxlil qilish maqsadga muofiqdir. Atalitik taxlillarni bajarish uchun ichki yonuv dvigatelining bir silindirining chiqish zvenosi polzunini siljishini krivoshipning burilish burchagiga bog’lik tenglamasini tuzish lozim bo’ladi (2-rasm).




*2-rasm. Ichki yonuv dvigatelining krivoship polzun mexanizmi.*

**Mexanizimning siljish diagrammasini quramiz:**

Rasimdagi keltirilgan mexanizimning B nuqatasini siljishini aniqlash.

$S = (A_0O + A_0B_0)$-OB (1)

Bu yerda:

$l_1 = A_0O$ – yetaklovchi zvenoning xaqiyqiy uzunligi, m.

$l_2 = A_0B_0$ -shatunning xaqiyqiy uzunligi, m.

$S_B = (l_1 + l_2) - (l_1 cos\varphi_1 + l_2 cos\varphi_2)$ (2)

Uchburchak ΔOAK va ΔKAB dan foydalanib quydagi tenglamani aniqlaymiz:

$l_1 sin\varphi_1 = l_2 sin\varphi_2$ (3)

Bu tenglamadan foydalanib:

$sin\varphi_2 = \frac{l_1}{l_2} sin\varphi_1$ (4)

$cos\varphi_2 = \sqrt{1 - (\frac{l_1}{l_2} sin\varphi_1)^2}$ (5)

B nuqtaning ko’chishi quydagiga teng bo’ladi:

$S_B = l_1(1+(\frac{l_2}{l_1})- cos\varphi_1- \frac{l_2}{l_1}\sqrt{1 - (\frac{l_1}{l_2} sin\varphi_1)^2})$ (6)

**Krivaship va shatun nisbati:**

$\lambda= \frac{l_1}{l_2} = \frac{74.8}{265.7} = 0.281$ dan foydalanib

$S_B = l_1(1+(\frac{1}{\lambda})- cos\varphi_1-\frac{1}{\lambda}\sqrt{1 - (\lambda sin\varphi_1)^2})$ (7)

tenglamadagi:

$\sqrt{1 - (\lambda sin\varphi_1)^2} \approx 1 - \frac{(\lambda sin\varphi_1)^2}{2}$ (8)

bundan:

$S_B = l_1(1- cos\varphi_1+ \frac{\lambda sin^2\varphi_1}{2})$ (9)

Bizga ma’lumki:

$sin^2\varphi_1= \frac{1-cos2\varphi_1}{2}$ (10)

U holda B nuqtaning ko’chishi quydagiga teng bo’ladi:

$S_B = l_1(1- cos\varphi_1+\frac{\lambda}{4}(1 - cos2\varphi_1)$ (11)

Ushbu fo’rmuladagi $\varphi_1$ ning qiymati $\varphi_1$=0 ÷ 360$^0$ oraliqda qurib quydagi grafikni hosil qilamiz (3-rasm):

Berilgan: $l_1$ =74.8 m, λ =0,4 buni dvigatelning shatuni va krivoship uzunligi asosida porshen yo’lini ko’rishimiz mumkin .




*3-rasm. Ichki yonuv dvigatelining chiqish zvenosining siljish diagrammasi*

**Mexanizimning tezlik diagrammasini quramiz:**

B nuqtaning tezlik tenglamasini xosil qilish uchun (11) formulani $\varphi_1$ burchak bo’yicha differensiallab quydagi tenglamani hosil qilamiz:

$$\frac{dS_B}{d\varphi_1} = l_1(sin\varphi_1\frac{d\varphi_1}{dt}+\frac{\lambda}{2}sin2\varphi_1\frac{d\varphi_1}{dt})$$

(12)

$\frac{d\varphi_1}{dt}=\omega_1$ tenglamadan foydalanib:

$$\frac{dS_B}{d\varphi_1} = \omega_1 l_1(sin\varphi_1+\frac{\lambda}{2}sin2\varphi_1)$$

(13)

B nuqtaning tezligi hosil bo’ladi: $l_1$ = 0,0748m, $\omega_1$ = 50rad/s, λ = 0,281521 va

$\varphi_1 = 0 \div 360^0$ diapazonda joylashganligidan quydagi grafikni hosil qilamiz (4-rasm):




*4-rasm. Ichki yonuv dvigatelining chiqish zvenosining tezlik diagrammasi*

**Mexanizimning tezlanish diagrammasi.**

B nuqtaning tezlanish tenglamasini xosil qilish uchun (13) formulani $\varphi_1$ burchak bo’yicha differensiallab quydagi tenglamani hosil qilamiz:

$$\frac{d^2S_B}{d\varphi_1^2} = l_1\omega_1(cos\varphi_1\frac{d\varphi_1}{dt}+\lambda cos2\varphi_1\frac{d\varphi_1}{dt})$$

(14)

$\frac{d\varphi_1}{dt}=\omega_1$ tenglamadan foydalanib:

$$\frac{d^2S_B}{d\varphi_1^2} = \omega_1^2 l_1(cos\varphi_1+\lambda cos2\varphi_1)$$

(15)

B nuqtaning tezlanish hosil bo’ladi:

$l_1$ = 0,0748m, $\omega_1$ = 50rad/s, λ = 0,281521 va

$\varphi_1$=0 ÷ 360$^0$ diapazonda joylashganligidan quydagi grafikni hosil qilamiz (5-rasm):




*5-rasm. Ichki yonuv dvigatelining chiqish zvenosining tezlanish diagrammasi*

**Xulosa :**

Taklif etilayotgan o’zgartirish tufayli ichki yonuv dvigetilining tezligi 0.75v dan 0.9v ga o’zgarganini ko’rishimiz mumkin bu tezlik qiymatini 20% oshgani ko’rsatadi .







O’zingni rasmiy o’lchamlarida O’lchamlarning oshirish natijasida

$$N = \frac{A}{t} = \frac{F \cdot S}{t} = \frac{F \cdot v \cdot t}{t} = F \cdot v$$

$$N = F \cdot v$$

Bu quvvat formulasi orqali bizlar tezlikni o‘zgarishi orqali quvvatni ham 20% oshirganimizni ko’rishimiz mumkin .

**Foydalanilgan adabiyotlar :**


1. **Boboyev M. Sh., Tursunov Sh. T.** "Ichki yonuv dvigatellari mexanizmlarining modellashtirilishi va shatun-krivoyshchep mexanizmining dinamikasini tahlil qilish" , O‘zbekistonda ilm-fan va texnika yutuqlari. – Toshkent, 2022. – №2. – B. [ 45–49 ]
2. **Кузнецов В.Н.** "Анализ соединения шатунно-кривошипного механизма в условиях переменной нагрузки" Машиностроение и техносфера XXI века. – Москва, 2021. – №3. – С. [ 66–70 ]
3. **To‘xtasinov A. M.**, Ismoilov B. I. Mexanizmlar va mashinalar nazariyasi – Toshkent: “Fan va texnologiya”, [2019. – 384 b.]
4. **Haydarov A.**, Raxmatov D. Mashina detallarining mexanik harakati va bog‘lanmalari – Toshkent: TDPU nashriyoti, [2021. – 312 b.]
5. **Епифанов В.А.** Теория механизмов и машин – Москва: Высшая школа, 2018. [ – 456 с. ]


## OMMAVIY AXBAROT VOSITALARI VA JAMOATCHILIK FIKRI


*Ibragimov Jasurbek Ilhomjon o‘g‘li*

*ibragimovjasur1992@gmail.com*

*Alisher Navoiy nomidagi*

*Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti*

*ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi*

*sotsiologiya yo‘nalishi o‘qituvchisi*



**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ommaviy axborot vositalarining jamoatchilik fikriga ta’siri tahlil qilinadi. OAV

jamiyatdagi muhim axborot manbai sifatida nafaqat axborot yetkazadi, balki ijtimoiy ongni shakllantiradi, munosabatlar va qadriyatlar tizimini o‘zgartiradi. Tadqiqotda matbuot, radio, televideniye, internet va ijtimoiy tarmoqlarning jamoatchilik fikriga qanday ta’sir ko‘rsatishi misollar asosida ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, axborotning ishonchliligi, axborot manipulatsiyasi, senzura va jamoaviy ong kabi tushunchalar ham tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** OAV, jamoatchilik fikri, axborot, ta’sir, ijtimoiy ong, senzura, ijtimoiy tarmoqlar, media manipulyatsiyasi.

**MASS MEDIA AND PUBLIC OPINION**

**Abstract:** This article analyzes the impact of mass media on public opinion. As a key source of information in society, mass media not only transmits information but also shapes public consciousness and influences attitudes and values. The study illustrates how press, radio, television, the internet, and social networks affect public opinion through specific examples. It also examines concepts such as information credibility, media manipulation, censorship, and collective consciousness.

**Keywords:** mass media, public opinion, information, influence, social consciousness, censorship, social networks, media manipulation.

